

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“Himoyaga ruxsat etildi”
Pedagogika fakulteti dekani,
f-m.f.n. _____**

X. Mavlyanov

«__» _____ 2017- y.

5111800 –Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

SOBIROVA NAZOKAT TUROBJON qizining

**“KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN
TANISHTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING AHAMIYATI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Himoyaga tavsiya etildi”
Makatbgacha ta'lim metodikasi
kafedra mudiri _____
dots. M.Maxsudova**

“__” _____ 2017-y.

**BMI rahbari: _____
katta o'qituvchi.
Z.S.Qodirova.**

Namangan – 2017

Reja :

Kirish

I bob. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanishning nazariy holati.

1.1. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

1.2. Bolajon dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotdan foydalanishning mazmuni.

1.3. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirish mashgulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishga qo'yiladigan talablar.

II bob. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

2.1. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish shakllari.

2.2. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish metodlari va vositalari.

2.3. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashgulotlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.

Tajriba sinov ishlari

Xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim bolani uning individual xususiyatlarini hisobga olgan, davlat va jamiyat ehtiyojlariga bog'liq holda har tomonlama sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida:

“Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur..”¹ ekanligi ta'kidlab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” deb nomlangan ma'ruzasida: “... ta'limning yangi zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish..., bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimizning kelajagi uchun strategik ahamiyatga ega ekani...”² alohida ta'kidlab o'tildi.

2017- yil 20-aprelda Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta tayyorlash, xalqaro standartlar

¹ Mirziyoev SH. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. “O'zbekiston”, 2017 y. – 45-b.

² Mirziyoev SH. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. “O'zbekiston”, 2017 y. – 44-b.

darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 sonli qarorlari chiqdi. Qaror 16 ta band va 75 ta ilovadan iborat. Qarorning asosiy maqsadi, Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash;

Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar talab dajada emasligini, oliy ta'limda ishlovchi pedagog zamon bilan hamnafas bo'lishi kerakligi ta'kidlab o'tildi.

"Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni"- istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu harakatlar mamlatimizning barcha jabhalarida mehnat qilayotgan kishilardan, jumladan, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kishilardan yuksak professional tayyorgarlikka, g'oyaviy-siyosiy barkamol, tashkilotchilikka va boshqaruvchilikka ega bo'lish lozimligini taqazo qilmoqda. Chunonchi, ta'lim sohasidagi tub islohotlar, yangilanayotgan, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli, usullari, vositalari milliy lashib, o'zbekona urf-odatlar o'quv-tarbiya jarayoniga faol kirib borayotgan bir sharoitda yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar har bir o'qituvchini yangicha fikrlashga, sharqona ish yuritishga, tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga undaydi.

Muhtaram Prezidentimiz bugun mamlakatimizda bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.

Mirziyoevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori (2016 y.) ushbu fikrlarning isbotidir. Qarorda belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida bolalarni maktabga tayyorlash bo’yicha quyidagilarga erishilishi kutilmoqda:

yuqori sifatli maktabgacha ta’limni ta’minlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etishga;

bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo’lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etishga;

3-6 yoshdagi maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo’llanmalar bilan ta’minlash orqali maktab ta’limiga tayyorlashni tashkil etishga;

bolalarni maktabga ta’limga qamrovini 1,5 barobarga oshirishga.

Bunday natijalarga erishish uchun maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash; maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog’ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash; bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash; ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish; bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish yo’nalishlari bo’yicha puxta rejalar ishlab chiqildi va amalga oshirishga kirishildi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga har tomonlama puxta tayyorlash davlat va jamiyat, oila hamda ta’lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni

har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga doir dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining qoidasi bo'lishi kerak" deb nomlangan ma'ruzasida maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni qamrab olish atigi 27 foizni tashkil etishi va bu sohadagi ishlar e'tibordan chetda qolganligi ta'kidlab o'tildi. Shuning uchun ham O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy etish orqali bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari ko'rilmogda.

Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, u bashariyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir. Shu sababli ham insoniyat paydo bo'libdiki, tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldida muhim muammo bo'lib kelmogda va ular ko'p variantli yo'llar, vositalar bilan turlicha shakllarda, uslublarda amalga oshirilmogda.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsini rivojlantirish, shakllantirish, ular tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish asnosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassalarida o'qitish davomida tevarak atrofdagi hayot tabiat, odamlar mehnati, ijtimoiy hodisalar va voqealar haqidagi bilimlarni tarbiyalashning asosini tashkil etadi.

O'qitish jarayonida bolalar mehnatga, o'qishga yaxshi tayyorgarlikni ham o'zlashtiradilar. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarkibiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmuni tanlash, uni egallab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan

ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda, ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy turlari undagi shaxsiy kobilyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrofga ma'lum bir munosabatning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi. M: kattalarning bolalar bilan bo'ladigan hissiy, hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talabni vujudga keltiradi, dastlabki xarakter va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi.

Mashg'ulotlardagi o'quv faoliyati orqali bolalar tevarak- atrofdagi tabiat, ijtimoiy hayot, kishilar tug'risidagi bilimlarni o'zlashtirib oladilar. Shuningdek, ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi.

Agar ta'lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi aniq dalillarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi.

Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va uziga munosabat sistemasini izchil o'zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro'y beradi.

Bolalar o'rtoqlarini, kattalarni tinglashni o'rganadilar. Bolalarni nutqlari ravonlashib bolalar bilan tashkil etiladigan badiiy faoliyat bolalarni estetik rivojlanishiga yordam beradi. Yangi ko'nikma va malakalarni egallashlari

maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni o'yin harakatlari mehnat faoliyatlarini boyitadi.

Mashg'ulotlar har bir bolaning doimo o'rgatilgan tartibga amal qilishga talab etadi. Mashg'ulotda bolalar qay vaqtda ko'rsatmani aniq bajarish kerakligiga qay vaqtda o'z xoxishlari bilan ish tutishlari mumkinligini bilib oladilar.

Katta guruh bolalari bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmunan biroz murakkab va bolalarni yetarli darajada aqliy mehnat irodaviy kuch berishni talab etadi. Katta guruhda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni bir necha xususiyatlarini belgilab o'tish mumkin.

Mashg'ulotlar faqat hajmi jihatdan kengaytirilmaydi, balki tarbiyachi bu mashg'ulotlarda bolalarni tasavvurlarini aniqlashga har bir guruh narsalarining xarakterli va muhim belgilarini ochib berishga ham intiladi. Pedagog bolalar diqqatini ular atrofini o'rab olgan olamdagi narsa va hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan bog'lanish va aloqalariga qaratadi va ularni ochishga bolalarda qiziqish uyg'otadi. Katta maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar barcha bog'lanishlarni bilishi shart emas. Bolalar bilimining sistemaliligi va bog'liqligi ularning erkin o'yinlarida ham sayr ekskursiya vaqtida ko'rgan va eshitganlarini hikoya qilib berishlarida ham namoyon bo'ladi. Katta guruh bolalarining sistemali va izchil kuzatish natijasida ayrim voqea va hodisalar turli bog'lanishlarni aniqlash imkoni tarbiyachi maxsus rivojlantirib taraqqiy ettirib boradi.

Katta guruhlarda bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning dastur talablariga muvofiq tarbiyachi sistemali bilim berishga alohida ahamiyat beradi. Keyinchalik maktabda o'qish va hayotiy tajribalarni saqlanib borishi natijasida tabiat haqidagi tasavvurlari ortib boradi. Bolalar mashg'ulotlar orqali noaniq bilimdan ularni differensial farq qiladigan bilimlarini ko'ra bilishga xarakat qilish, boshqa tomondan aloqa o'rnatish, buyum hodisalarni qandaydir guruhlarga birlashtirish bolalarni bilimlari ustida ishlashdan iborat.

Tarbiyachi bolalarni yil fasllari haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirib sistemaga solib ularni tabiatda ro'y beradigan hodisalarni izchil tushunishlariga harakat qiladilar. Bilimlarni sistemaga solishni bilgan bu yoshdagi bolalar hikoya

to'qishni tarbiyachi taklif etgan reja bo'yicha so'rab berish kabi topshiriqlarni bajara oladilar.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida birlalarni Davlat talablari asosida tarbiyalash uchun mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolo shaxsini rivojlantirish, shakllantirish, ular tomonidan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirish asnosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish davomida tevarak atrofdagi hayot-tabiat, odamlar mehnati, ijtimoiy hodisalar va voqealar haqidagi bilimlarni tarbiyalashni asosini tashkil etadi.

Agar ta'lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to'g'risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berishda asosiy e'tibor muhim bog'liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o'qish asosiy faoliyat bo'lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar. Bola o'zini maktab o'quvchisi deb tushuna boshlaydi.

Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat eytakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug'ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi.

Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va uziga munosabat sistemasini izchil o'zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro'y beradi. Bunda bolalik va o'smirlik yoshi ayniqsa muhimdir.

Bolalar o'rtoqlarini, kattalarni tinglashni o'rganadilar. Bolalarni nutqlari ravonlashib bolalar bilan tashkil etiladigan badiiy faoliyat bolalarni estetik rivojlanishiga yordam beradi. Yangi ko'nikma va malakalarni egallashlari

maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni o'yin harakatlari mehnat faoliyatlarini boyitadi.

Katta guruhlarda mashg'ulotlarni tashkil etish dasturi va usullari o'quv faoliyati va xarakterining kasb etib boradi.

Mashg'ulotlar har bir bolaning doimo o'rgatilgan tartibga amal qilishga talab etadi. Mashg'ulotda bolalarni o'zini darsdagi kabi tutishga odatlantirishni tarbiyalash o'z ichiga: Bolalarda tarbiyachining so'ziga diqqatini tez qarata olishi, uning talab va ko'rsatmalarini darhol bajarishini, takrorlashni, qayta so'ramaslikni materialni tayyorlash uchun ortiqcha sarf qilmaslik ko'nikmalarini oladi. Agar bolalar uchta piyolani darhol olib xoxlagan tartibda emas tarbiyachi qanday ko'rsatgan va tushuntirgan bo'lsa, xuddi shu tartibda qo'yishlari kerak.

Mashg'ulotda bolalar qay vaqtda ko'rsatmani aniq bajarish kerakligiga qay vaqtda o'z xoxishlari bilan ish tutishlari mumkinligini bilib oladilar.

Katta guruh bolalarida o'yini bilan mashg'ulot orasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Farq albatta bo'lishi shart. hatto tarbiyachi o'zini tutishi bolalarga muomalasi kundalik sayr yoki o'yin vaqtdagiga qaraganda biroz jiddiyroq qat'iyroq bo'lishlari kerak.

Katta guruh bolalari bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmunan biroz murakkab va bolalarni yetarli darajada aqliy mehnat irodaviy kuch berishni talab etadi. Katta guruhda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni bir necha xususiyatlarini belgilab o'tish mumkin.

Mashg'ulotlar faqat hajmi jihatdan kengaytirilmaydi, balki tarbiyachi bu mashg'ulotlarda bolalarni tasavvurlarini aniqlashga har bir guruh narsalarining xarakterli va muhim belgilarini ochib berishga ham intiladi. Pedagog bolalar diqqatini ular atrofini o'rab olgan olamdagi narsa va hodisalar o'rtasida mavjud bo'lgan bog'lanish va aloqalariga qaratadi va ularni ochishga bolalarda qiziqish uyg'otadi. Katta maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar barcha bog'lanishlarni bilishi shart emas. Bolalar bilimining sistemaliligi va bog'liqligi ularning erkin o'yinlarida ham sayr ekskursiya vaqtida ko'rgan va eshitganlarini hikoya qilib berishlarida ham namoyon bo'ladi. Katta guruh bolalarining sistemali va izchil

kuzatish natijasida ayrim voqea va hodisalar turli bog'lanishlarni aniqlash imkoni tarbiyachi maxsus rivojlantirib taraqqiy ettirib boradi.

Katta guruhlarda bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning dastur talablariga muvofiq tarbiyachi sistemali bilim berishga alohida ahamiyat beradi. Keyinchalik maktabda o'qish va hayotiy tajribalarni saqlanib borishi natijasida tabiat haqidagi tasavvurlari ortib boradi. Bolalar mashg'ulotlar orqali noaniq bilimdan ularni differensial farq qiladigan bilimlarini ko'ra bilishga xarakat qilish, boshqa tomondan aloqa o'rnatish, buyum hodisalarni qandaydir guruhlarga birlashtirish bolalarni bilimlari ustida ishlashdan iborat.

Tarbiyachi bolalarni yil fasllari haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirib sistemaga solib ularni tabiatda ro'y beradigan hodisalarni izchil tushunishlariga harakat qiladilar. Bilimlarni sistemaga solishni bilgan bu yoshdagi bolalar hikoya to'qishni tarbiyachi taklif etgan reja bo'yicha so'rab berish kabi topshiriqlarni bajara oladilar.

Katta guruh bolalarida sistemali bilimlarni o'sganligi va aqliy bilimlarni, faoliyatni murakkablashganligiga ham mashg'ulotlarda yaqqol ko'rinadi. Maktabga boradigan bolalarda faqatgina sanashni bilish talab etilmaydi balki bolalardan aytilgan sonni narsalarda sanab ko'rsatishni ham talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassalarida bolalarning umumiy rivojlanishi shu jumladan aql rivojlanishining yuqori suratlari mashg'ulotlarni turli yosh guruhlarda yaxshi tashkil etilishiga bog'liq. Agar mashg'ulotlar to'g'ri izchil tashkil etilsa bolalarni maktab ta'limiga to'g'ri tayyorlagan bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 11-moddasida: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi"³, -deyilgan.

³ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1998. – 23-b.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim Kontsepsiyasi 2008-2017 yillar davomidagi islohotlar va rivojlanishning kontseptual Nizomidan iborat. Unga maktabgacha ta'limning asosiy mazmuni, maqsadi, vazifalari, yangilanish tamoyillari, amalga oshirishning usul va modellari kiritilgan. Maktabgacha ta'lim tizimining tuzilish tavsifi yoritilib, maktabgacha ta'lim muassasalari va pedagogik texnologiyalarni uslubiy ta'minlanish tavsifi berilgan. Kontsepsiya F.R.Qodirova (pedagogika fanlari doktori, professor), Z.R.Qodirova (pedagogika fanlari doktori, dotsent), F.N.Vahobova (psixologiya fanlari nomzodi)lar tomonidan tuzilgan.

Kontsepsiyaning tuzilishi:

1. Kirish.
2. Asosiy mazmun.
3. Maktabgacha ta'lim tizimining tuzilish tavsifi.
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarini dasturiy-uslubiy ta'minlash.
5. Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar.

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashqil etilishi, mas'ul shaxslar tomonidan uni nazorat qilinishining afzalligini ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalar otalarining oilada bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi uchun qulaylik yaratish maqsadida "Bolajon" tayanch dasturi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Maktabgacha ta'lim Kontsepsiyasi hamda Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida ishlab chiqildi.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida etishib chikkan barcha olimu fozillar, shoiru-yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orkali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga kutarilganlar.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. P.Yusupova, M.Sh.Rasulova, G.Jalolova, O.Xasanboyeva, Bikbaeva.N.U, K.M.Maxkamjonov, chet el olimlaridan E.T.Nedopekina, A.V.Nikol'skaya, X.Klinton, D.B.El'konin, L.A.Venger, T.V.Tixomirovlarning tadqiqotlarida tadqiq etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning ahamiyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning mazmunini yoritish.
2. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning mashgulotlar jarayonidagi amaliyotdagi holatini o'rganish.
3. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning mashgulotlar jarayonidagi yuzaga keladigan qiyinchiliklarni oldini olish va bartaraf etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash.
4. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning mashgulotlar ishlanmalarini tayorlash va ta'lim muassasasi hamkorligiga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: maktabgacha yoshdagi katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanishning mazmuni, metodlari va vositalari.

- **Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati:**
- Bitiruv malakaviy ishni bajarish davrida mavjud adabiyotlarga asoslanib “katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning ahamiyati”, tushunchasining mohiyati ochib berilgan; pedagoglarda katta guruhlarda katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanishga doir bilim, malaka, ko'nikmalar hosil qilishga erishildi.

- **Bitiruv makaviy ishning tuzilishi:**
- Ish kirish, 2bob, 6 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

I bob. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanishning nazariy holati.

1.1. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

-Kuni kecha mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2017-2016-yillarda Maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Qarorda belgilangan vazifalar Respublikada faoliyat yuritib kelayotgan Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga qanday o'zgarishlarni olib kirishi mumkin.

-Mazkur qarorni amalga oshirish jarayonida bolalarni haar tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarim uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashda "Bolajon" va "Bilimdon" dasturlari zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida olib boriladi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik kutubxonalar tashkil etiladi. Bolalarni badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini barvaqt uyg'otish maqsadida bolalar va ota-onalar uchun zarur bo'lgan badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash ham belgilab olingan. 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida 50 ta yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasida eski kapital ta'mirlash ishlarini amalga oshirish hamda ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan jihozlash rejalashtirilgan.

Bolalar adabiyotida tabiat turli badiiy vositalar yordamida ifodalanadi. Oz mazmuniga ko'ra ilmiy bo'lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtda san'atning bir turidir. Uning xususiyati mana shundadir.

Tabiat haqidagi bolalar kitobidan pedagog birinchi navbatda tariyaviy maqsadlarda foydalaniladi. U san'atning turi sifatida faqat bolaning aqligagina emas, balki uning hissiyotiga ham ta'sir etadi. V.Bianki, M.Prishvin, N.Pavlova, N.Sladkov tomonidan obrazli tasvirlangan bog'larning chamandek gullashi, o'tloqlarning rang-barangligi, g'arayib daraxtlar bolada tabiatga nisbatan estetik munosabatni, uni sevishni shakllantirish imkonini beradi.

Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni, kuzatuvchanlikni bilimga bo'lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi. U bolalar oldiga yangi savollarni qo'yadi, bolalarni atrofdagi tabiatga diqqat bilan qarashga majbur qiladi.

Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachining qo'lida katta bilish qiymatiga egadir. U kuzatilayotgan joydan chetga olib chiqadi va shu orqali bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi, bolani bevosita idrok etolmaydigan hodisalar bilan tanishtiradi. Kitob yordamida boshqa iqlim zonalaridagi tabiat hodisalari, hayvon va o'simliklarning hayoti haqida bilish, predmet va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarni aniqlash hamd konkretlashtirish mumkin. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda jonsiz tabiat hodisalarini ochib beradi, tabiatda mavud bo'lgan aloqa va munosabatlarni aniqlashga yordam beradi.

Tabiatshunoslik kitobining asoschilari V.V.Bianki va M.M.Prishvinlardir. V.Biankining kitoblari bolalarni tabiatni ilmiy ko'rishga o'rgatadi. V.Biankining yaratgan har bir hikoya, ertak asosida o'rab olgan tabiat haqida aniq fakt, aniq ilmiy ma'lumotlar yotadi. V.Biankining asarlari tarbiyachiga tabiatning murakkab hodisalarini bolalarga qiziqarli formada ochib berishga, tabiat dunyosida mavjud bo'lgan qonuniyatlarni: organizmning atrof-muhitga moslashuv formalarining xilma-xilligini, muhit va organizmning o'zaro ta'siri va shu kabilarni ko'rsatishiga imkon beradi. Masalan, «Birinchi ov» ertagida V.Bianki yumor vositasida kichkina bolalarni mimikriya kabi tabiatning murakkab hodisasi bilan isnonarli tanishtiradi, hayvonlar himoyasining xilma-xillik formalarini ko'rsatadi. V.Biankining «Bu kimning oyoqlari» «Kim nima bilan sayraydi?» «Kimning burni yaxshiroq» «Dumlar» ertaklari qiziqarlidir. Ular hayvonning u yoki bu organining tuzilishi u

yashaydigan muhit, hayotiy sharoitlarga bog'liq ekanligini ochib berish imkonini beradi.

Tarbiyachi V.Biankining asarlaridan bolalarga tabiat dunyosi doimiy o'zgarishda, rivojlanishda ekanligini ko'rsatish uchun foydalaniladi. V.Biankining «O'rmon gazetasi» «Bizning qushlarimiz» «Chittakning kalendari» asarlaridan bolalar jonsiz tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni bilib oladilar.

Bolalar tabiatshunoslik kitoblari tarbiyachinig barcha yosh guruhlaridagi ishlarida foydalidir. Biroq badiiy so'z bolalarning bevosita kuzatishlarini ustalik bilan biriktirish lozim.

Tabiatshunoslik kitobidan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan bo'ladigan ishda turli maqsadlarda foydalaniladi. Bolalar oldiga vazifa qo'yish, bo'lajak kuzatishga qiziqish uyg'otish uchun kuzatishdan oldin kichik hikoya, ertak aytib berish mumkin. Erta bahorda tuyatovonning birinchi shoxchalari ko'ringanda tarbiyachi bolalarga N.M. Pavlovaning «Erta bahor» hikoyasidan bu o'simlikning qisqacha tasvirini o'qib berish mumkin. Bunday o'qishdan so'ng bolalarda tuyatovonga qiziqish o'sadi, ularning diqqati nimani va qanday kuzatish lozimligiga yo'llanadi. N.M. Pavlovaning «Buta ostida», «Bulutdek» asarlari ham shu maqsadda o'qiladi.

Bolalarni qorning himoya qiluvchi xususiyatlari va o'simliklarning qishdagi holati bilan tanishtirishdan oldin «O'tloqda qor ostida» hikoyasini o'qib berish mumkin. Bolalar o'simliklar qishda halok bo'lmasligini, faqat o'sishdan to'xtashlarini bilib oladilar. Bu hikoyadan olingan ma'lumotlarni tekshirish sayrlar vaqtidagi kuzatish uchun vazifa bo'lib qoladi.

Kuzatishlar jarayonida bolalarga maqollar, matallar, topshiriqlar, kichik she'rlar tavsiya etiladi. Bularning obrazli tili hodisaning xususiyatlarini, predmetning ma'lum sifatlarni ajratib ko'rsatish, tabiatni estetik idrok etishni kuchaytirish imkonini beradi. Qishda muz, qor, ob-havoni kuzatayotganda tarbiyachi topishmoq va maqollardan foydalanadi.

Kuzatishlar jarayonida tabiatshunoslikka oid adabiyotlardan foydalanish bolalarga o'rab turgan tabiatni dunyosini to'g'ri idrok etish va tushunishlarida, uni

o'z bilimlari bilan bog'lay olishlarida yordam beradi. Bu maqsadda V.V.Biankaning "O'rmon gazetasi", N.Sladkovning "Ezma zag'zg'onlar" ("Sorochix taratarok")dan olingan qisqa ma'lumotlar foydalidir.

Tabiatshunoslik kitoblarni tarbiyachi bolalarga kuzatishdan keyin ham o'qib beradi. Bunday holatda badiiy asarlar ko'rilganlarga yakun yasash, to'ldirish, kuzatishni chuqurlashtirishga, bolalar diqqatini tabiat hodisalarini kelgusida ham idrok etish uchun yo'llashga yordam beradi.

Bolalar tabiatshunoslik kitoblarini o'qish, uni o'qib bo'lgandan keyingi suhbat tabiat bilan tanishtirishning mustaqil metodi ham bo'lishi mumkin. Kitob o'qilgandan so'ng o'tkaziladigan suhbatda bolalarga asar ma'nosini tushunishlarida, uning mazmunini to'liqroq va chuqurroq o'rganib olishlarida yordam berish zarur. Shuning uchun suhbat o'qilgan tekstni gapirib berish asosida tuzilmasligi kerak. Bu o'rinda asosiy e'tiborni hodisalar o'rtasidagi aloqani ochib berishga, faktlarni anglashga qaratish lozim. Ilgari egallangan bilimlar zapasi bolalarning yangi axborotlarni egallab olishlariga ta'sir etadi. Mna shundan kelib chiqib, suhbatda shaxsiy bilim bilan yangi bilimlar o'rtasidagi aloqani o'rnatish zarur. Suhbatga qo'yiladigan so'zsiz talab –bolalarda badiiy obrazlardan olingan taassurotlarning bevositaligini saqlab qolishdir. Bunga savollarni qahramon shaxsi orqali berish, savollarda hikoya, ertak obrazlarini qo'llab erishish mumkin.

KATTA GURUH

Maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolalarda analitik-sintetik faoliyatga qobiliyat ancha rivojlanadi. Bolalar olti yoshlarida ayrim konkret faktlarni, hodisalarning tashqi xususiyatlarini bilib olish bilangina cheklanib qolmaydilar, balki hodisalarning mohiyatiga kirib borishga, ularning sabablarini tushunishga urinadilar. Shularni nazarda tutib, katta guruhda tabiat bilan tanishishga oid masalalar va programma murakkablashtirib boriladi.

Bolalarda jonsiz tabiatdagi narsa va hodisalar haqida tasavvur va eng oddiy tushunchalar sistemasi shakllantiriladi: ular kun va tunning uzun-qisqaligidagi o'zgarishning sababini, turli faslda yog'in-sochin, ob-havoning xususiyatlarini bilib oladilar; o'simliklarni farqlash va nomlarini atashni o'rganadilar, ularni

parvarish qilish qoidalarini egallab oladilar; o'simliklarning asosiy o'sish va rivojlanish bosqichlarini payqashga o'rganadilar, mavsumga qarab o'simliklar holatidagi o'zgarishlarning asosiy sabablarini tushuna boshlaydilar; o'simliklarni parvarish qilishning ayrim xususiyatlarini bilib oladilar, hayvonlarning tashqi tuzilishi va o'ziga xos odatlarini farqlashga o'rganadilar, ayrim turlarini rivojlanishi haqida ularning dushmalaridan saqlanish yo'llari haqida bilim oladilar, tabiat burchagida yashovchilarni parvarish qilishning asosiy malakalarini egallab oladilar.

Katta guruhda tabiat obektlarini aniq va muhim belgilari hamda bog'lanishlariga qarab umumlashtirish va turkumlarga ajratish malakalarini shakllantirish zarur.

Bolalarda tabiatni avaylab asrash va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish hamda unga muhabbatni, uni estetik idrok etishni tarbiyalash muhim vazifaligicha qolaveradi.

Maktabgacha yoshdagi bola san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san'at obrazlarini yaxlit va emosional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab etishi bilan ajralib turadi. Chunonchi, yorqin va ritmik marsh musiqasini tinglar ekan, bola eng avvalo, uning ko'tarinki kayfiyatini qabul qiladi va uning muayyan harakat xususiyati bilan aloqasini ilg'ab oladi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emosional munosabat bildirish va sensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularni tegishli hayot hodisalari bilan qiyoslaydi va o'zining birinchi umumlashtirmalariga keladi.

To'rt yoshga kelib bolalar badiiy matnni emosional va yaxlit qabul qilganlari holda uni tushunganliklarini nafaqat nutqda (qayta hikoya qilish, yoddan aytib berish, savollarga javob berish), balki predmetli va o'yinli vaziyatlarda ham ifodalaydilar. Ular ikki-uch personaj yoki hodisani ajratadilar, ular o'rtasida alohida aloqa o'rnatadilar va shu tariqa asar syujetini gavdalantiradilar. Tavsiflashni takrorlash ko'pincha ularda ko'proq qiyinchilik tug'diradi.

Bu yoshda adabiy matni qabul qilish bolalarning amaliy va o'yin faoliyatiga yaqin bo'lgan «harakat»dan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asar bilan to'laqonli hamkorlik qilish uchun bola uni tinglashi, suratlarini tomosha qilishi, kitobni qo'llari bilan ushlab ko'rishi, o'yinchoklar bilan o'ynashi, matnning ayrim qismlarini deklamasiya qilishi yoki «baqirib aytishi», ularni muayyan hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini aniqlashi lozim. Ushbu yoshda badiiy asarni qabul qilish, ijrochilik va ijodkorlikni amalda chegaralab bo'lmaydi.

Bola hayotining beshinchi yilida badiiy matni mazmun-mohiyatli yagonalik sifatida qabul qilish mexanizmini shakllantirish boshlanadi. Bolalar bilan muloqot jarayonida pedagog endi bola harakatlari va fikrlarining qabul qilingan badiiy asar qanchalik mos kelishi haqida bevosita xulosalar chiqarishi mumkin. Ko'pchilik bolalar matn mazmunini yoyiq nutqiy shakllarda bayon qila olmaydilar, ammo uni suratlar, o'yinchoqlar bilan o'yinli vaziyatlarda, kattalar va tengdoshlari bilan dialoglarda mos ravishda tushunishlarini namoyish qiladilar.

Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emosional-yaxlit qabul qilish shunga olib keladiki, bolalar syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratganlari holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydilar. Ayni paytda ular uni to'qib to'ldiradilar, ayrim lavhalarni takomillashtiradilar, o'z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to'qiydilar, badiiy asarlar asosida o'yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafaqat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy tipajlarni -yagona emosional-mazmun dominantasi asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar.

Bolalar adabiy janrlarni farqlay boshlaydilar: ertaklar, hikoyalar, she'rlar; ular tilning tashbehlar, taqqoslashlar, giperbola kabi ayrim ifoda vositalarini ko'rishga qodirdirlar; she'riy asar kayfiyatini intonasiyalar yordamida ifodalab berishlari mumkin; yumor, lirika, tantana. Bayoniy matnlarning an'anaviy uch qismli tuzilmasi (kirish, harakatning rivojlanishi, yakun) va ularning stilistik vositalari (an'anaviy kirish formulasi, ertak, yakuni, takrorlash va boshq.) haqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Uch-to'rt yoshlarda bolalar adabiy asarlarni tanlashga qodirdirlar: ular ayrim adabiy qahramonlarni biladilar va sevadilar, o'zlari uchun muayyan asarni ajratib oladilar va doimo ularni o'qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o'zlari ham yoqib qolgan she'riy matnlarni ko'p martalab gakkorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko'rish yaqqol sezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari xisoblanadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagog ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishda quyidagi rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishi lozim:

- Turli janr va mavzulardagi adabiy asarlarni — ertaklar, hikoyalar, she'rlarni, she'riy fol'klorning kichik shakllarini tinglash, ularning mazmuniga emosional munosabat bildirsya va syujetning rivojlanishini kuzatib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- Bolalarni ayrim asarlar va ularning aynan bir xil qahramonlar bilan birlashtirilgan sikllari bilan tanishtirish;

- Tarbiyachi bilan birgalikda tanish asarlarni hikoya qilish, ularni to'liq yoki qisman sahnalashtirishga jalb qilish;

- Bolalar so'z ijodkorligi, she'riy matnlarning o'yinli va yumoristik versiyalari uchun qulay sharoit yaratish;

- Bolalarning o'yin, tasvirlash faoliyatlarini badiiy obrazlar bilan boyitish;

«Kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatida asrab-avaylash munosabatini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga doir ishlarning mazmuni va shart-sharoitlari masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun badiiy adabiyotning quyidagi janrlari maqsadga muvofiqsir: folklorning kichik shakllari, prozaik va she'riy ertaklar, hikoyalar, she'rlar. Ayni paytda bola uchun adabiy obrazlarning emosional jozibadorligi quyidagi hollardagina ortadi: ya'ni, agarda badiiy mazmun uning qabul qilishi uchun imkon doirasida bo'lsa; badiiy asar yorqin va ifodali taqdim

etilsa; bola badiiy matn mazmunini tashqi harakatlarda ifodalasa; badiiy asar asosida o'zi ham improvizasiya qilsa.

Birinchisi badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob'ekg sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan bog'liq. Bolalar aynan bir asarga ko'p marta duch keladilar, tarbiyachi uni takror o'qiydi, mazkur asarni sahnalashtirishni, diafil'mlar va videofil'mlar namoyishini tashkil etadi. Bolalar she'rni yoddan o'qiydilar (yaxlit yoki qisman), bunda ular o'qishning ifodaliligini sahnalashtirish elementlari bilan kuchaytiradilar. Guruhda bolalarga yoqib qolgan kitobdan bemalol foydalanish mumkin bo'lgan sharoitni yaratish zarur. Bunda tarbiyachining o'ziga qanday kitoblar yoqishini bolalarga haqqoniy biddirishi juda muhimdir.

Ikkinchi yo'nalish ayrim badiiy obrazlarni o'zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Bu asalarni o'xshashlik yoki qarama-qarshilik asosida guruhlash, obrazlarning ular faoliyatining turli ko'rinishlarida rivojlantirish tufayli amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda bolalarda quyidagi qobiliyatlar shakllantirilishi lozim:

Bilish qobiliyati: kattalarning kitob o'qishi va hikoya qilishini diqqatni jamlagan holda tinglash, chalg'itmaslik, asarni oxirigacha eshitish. Kattalar yordamida matn mazmunini tushunish, undagi voqealar tartibini belgilash, qahramonlarning muallif so'zi bilan yaratilgan eng yorqin hatti-harakatlarini ko'rish, ularni illyustrasiyalardan tanib olish. Nutqiy qobiliyat: o'qigan asardan olingan taassurotlarini kattalar va tengdoshlari bilan o'rtoqlashish. Taassurotlar, fikrlar, obrazlarni so'zlar bilan ifodalash. Tanish ertaklarni aytib berish, she'rlarni yoddan aytish, adabiy syujetlarni sahnalashtirishda, sahnalashtirilgan o'yinlarda ishtirok etish.

Munosabat: bolalarga yorqin emosional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qahramonlarga faol ko'maklashish hamda ular haqida qayg'urish xosdir. Bolalar kitob, she'r va xalq qo'shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular

dono fikr, hazil, qofiyadosh so'zlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qolishni hamda o'z nutqida qo'llashni xohlaydilar.

Katta guruh bolalari:

- O'ziga yoqqan nechta asarlar nomlarini aytishi; senga qaysi kitob yoqadi? (Tabiat haqidagi) U nima haqida? Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi? Bu ertakda yana kimlar bor? Ular nima qildilar? Bularning barchasi qanday tugadi? kabi savollarga javob bera olishi mumkin;

- Suratlarini o'ziga tanish bo'lgan ertaqdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortiqcha personajning surati chiqsa, bola uni chetga olib qo'yadi, biroq pedagog iltimosiga ko'ra, agar ushbu qahramon ham ertakda ishtiroq etsa nima ro'y bergan bo'lishi ' mumkinligini o'ylab topadi;

- O'zi xohlagan kichik she'r (ovunmoq) yoki ritmik tashkil etilgan matni (bo'g'irsoq qo'shig'i, ertakning ayrim leytmotivlari) emosional tarzda aytib berishi mumkin.

- Mustaqil faoliyatda — o'yinda, rasm chizishda va boshqa kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi.

1.2. Bolajon dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotdan foydalanishning mazmuni.

“Bolajon” tayanch dasturi bolalarni har tomonlama shakllantirishning asosi hisoblanadi. Dasturning maqsadi “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari”ning bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan sog'lom, aqlan va ma'nan etuk, jamiyatning turli a'zolari bilan muloqotda bo'la oladigan, borliqni aniq idrok etadigan, hayotga ijtimoiy jihatdan moslashuvchi, umummilliy qadriyatlarimizni qadrlaydigan, shuningdek, mustaqil va ongli yashaydigan bolani tayyorlashdan iborat.

Maktabgacha kichik yoshda olamga nisbatan estetik munosabat ko'p qirrali bo'ladi. Bu endi nafaqat tabiatga va atrofni o'rab turgan tabiat muhitiga

munosabat, balki insonlar olamiga — o'ziga, yaqinlariga, tengdoshlariga, boshqa kattalarga bo'lgan munosabat hamdir.

Maktabgacha kichik yoshdagi bola san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallab olish borasida keng imkoniyatlarga egadir. U san'at obrazlarini yaxlit va emosional qabul qilishi, ularning mazmunini oddiy anglab etishi bilan ajralib turadi. Badiiy qobiliyatlar tizimida emosional munosabat bildirish va sensorlik qobiliyatlari bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi. U badiiy obrazlarni bir-biri bilan taqqoslaydi, ularni tegishli hayot hodisalari bilan qiyoslaydi va o'zining birinchi umumlashtirmalariga keladi.

To'rt yoshga kelib bolalar badiiy matnni emosional va yaxlit qabul qilganlari holda uni tushunganliklarini nafaqat nutqsa (qayta hikoya qilish, yoddan aytib berish, savollarga javob berish), balki predmetli va o'yinli vaziyatlarda ham ifodalaydilar. Ular ikki-uch personaj yoki hodisani ajratadilar, ular o'rtasida alohida aloqa o'rnatadilar va shu tariqa asar syujetini gavdalantiradilar. Tavsiflashni takrorlash ko'pincha ularda ko'proq qiyinchilik tug'diradi.

Bu yoshda adabiy matnni qabul qilish bolalarning amaliy va o'yin faoliyatiga yaqin bo'lgan «harakat»dan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asar bilan to'laqonli hamkorlik qilish uchun bola uni tinglashi, suratlarni tomosha qilishi, kitobni qo'llari bilan ushlab ko'rishi, o'yinchoklar bilan o'ynashi, matnning ayrim qismlarini deklamasiya qilishi yoki «baqirib aytishi», ularni muayyan hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini aniqlashi lozim. Ushbu yoshda badiiy asarni qabul qilish, ijrochilik va ijodkorlikni amalda chegaralab bo'lmaydi.

Bola hayotining beshinchi yilida badiiy matnni mazmun-mohiyatli yagonalik sifatida qabul qilish mexanizmini shakllantirish boshlanadi. Bolalar bilan muloqot jarayonida pedagog endi bola harakatlari va fikrlarining qabul qilingan badiiy acapra qanchalik mos kelishi haqida bevosita xulosalar chiqarishi mumkin. Ko'pchilik bolalar matn mazmunini yoyiq nutqiy shakllarda bayon qila olmaydilar, ammo uni suratlar, o'yinchoqlar bilan o'yinli vaziyatlarda, kattalar va tengdoshlari bilan dialoglarda mos ravishda tushunishlarini namoyish qiladilar.

Ushbu yoshda boshqacha vaziyat ham yuzaga kelishi mumkin - ya'ni, bolalar tushunishda qiynalgan ancha murakkab matnni yoki uning ayrim qismlarini so'zlar bilan aytib beradilar.

Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emosional-yaxlit qabul qilish shunga olib keladiki, bolalar syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratganlari xolda ular bilan «o'ynashni» boshlaydilar. Ayni paytda ular uni to'qib to'ldiradilar, ayrim lavhalarni takomillashtiradilar, o'z ertaklarini, shu jumladan ular tomonidan ajratilgan adabiy obrazlarni to'qiydilar, badiiy asarlar asosida o'yin syujetlarini shakllantiradilar. Bolalar nafaqat u yoki bu adabiy obrazlarni ajratadilar, balki badiiy tipajlarni -yagona emosional-mazmun dominantni asosida umumlashtirma obrazlarni yaratganlari holda ularni birlashtiradilar.

Katta guruh bolalarida adabiy janrlarni farqlay boshlaydilar: ertaklar, hikoyalar, she'rlar; ular tilning tashbehtar, taqqoslashlar, giperbola kabi ayrim ifoda vositalarini ko'rishga qodirdirlar; she'riy asar kayfiyatini intonasiyalar yordamida ifodalab berishlari mumkin; yumor, lirika, tantana. Bayoniy matnlarning an'anaviy uch qisimli tuzilmasi (kirish, harakatning rivojlanishi, yakun) va ularning stilistik vositalari (an'anaviy kirish formulasi, ertak, yakuni, takrorlash va boshq.) haqidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi.

Uch-to'rt yoshlarda bolalar adabiy asarlarni tanlashga qodirdirlar: ular ayrim adabiy qahramonlarni biladilar va sevadilar, o'zlari uchun muayyan asarni ajratib oladilar va doimo ularni o'qib berish yoki aytib berishni iltimos qiladilar; o'zlari ham yoqib qolgan she'riy matnlarni ko'p martalab gakrorlaydilar. Besh yoshlarga kelib ayrim syujetli harakatlar va personajlarni afzal ko'rish yaqqol sezila boshlaydi. Bularning barchasi besh yoshli bolaning ancha boy adabiy tajribasi umumlashtirmalari xisoblanadi.

Maktabgacha yoshdaga kichik bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga doir ishlarning mazmuni va shart-sharoitlari masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun badiiy adabiyotning quyidagi janrlari maqsadga muvofiqsir: folylarning kichik shakllari, prozaik va she'riy ertaklar,

hikoyalar, she'rlar. Ayni paytda bola uchun adabiy obrazlarning emosional jozibadorligi quyidagi hollardagina ortadi: ya'ni, agarda badiiy mazmun uning qabul qilishi uchun imkon doirasida bo'lsa; badiiy asar yorqin va ifodali taqdim etilsa; bola badiiy matn mazmunini tashqi harakatlarda ifodalasa; badiiy asar asosida o'zi ham improvizasiya qilsa.

Pedagogik ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki yo'nalishda olib borish lozim.

Birinchisi badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob'ekg sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan bog'liq. Bolalar aynan bir asarga ko'p marta duch keladilar, tarbiyachi uni takror o'qiydi, mazkur asarni sahnalashtirishni, diafilmlar va videofilmlar namoyishini tashkil etadi. Bu orqali bolalarni tabiatga munosabatini, tabiatdagi voqea-hodisalarni tushuna olishga o'rgatib boramiz. Bolalar she'rni yoddan o'qiydilar (yaxlit yoki qisman), bunda ular o'qishning ifodaliligini sahnalashtirish elementlari bilan kuchaytiradilar. Guruhda bolalarga yoqib qolgan kitobdan bemalol foydalanish mumkin bo'lgan sharoitni yaratish zarur. Guruh kutubxonasida rasmlari tasvirlangan ko'plab kitoblar bo'lsa, bola undan hoxlagan vaqtda foydalanib tursa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bunda tarbiyachining o'ziga qanday kitoblar yoqishini bolalarga haqqoniy biddirishi juda muhimdir.

Katta guruhda Ikkinchi yo'nalish ayrim badiiy obrazlarni o'zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasazvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi. Bu asalarni o'xshashlik yoki qarama-qarshilik asosida guruhlash, obrazlarning ular faoliyatining turli ko'rinishlarida rivojlantirish tufayli amalga oshirish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda bolalarda quyidagi qobiliyatlar shakllantirilishi lozim:

Bilish qobiliyati: kattalarning kitob o'qishi va hikoya qilishini diqqatni jamlagan holda tinglash, chalg'itmaslik, asarni oxirigacha eshitish. Kattalar yordamida matn mazmunini tushunish, undagi voqealar tartibini belgilash, qahramonlarning muallif so'zi bilan yaratilgan eng yorqin hatti-harakatlarini

ko'rish, ularni illyustrasiyalardan tanib olish. Nutqiy qobiliyat: o'qigan asardan olingan taassurotlarini kattalar va tengdoshlari bilan o'rtoqlashish. Taassurotlar, fikrlar, obrazlarni so'zlar bilan ifodalash. Tanish ertaklarni aytib berish, she'rlarni yoddan aytish, adabiy syujetlarni sahnalashtirishda, sahnalashtirilgan o'yinlarda ishtirok etish.

Munosabat: bolalarga yorqin emosional munosabatlar, tasvirlangan voqealar va qahramonlarga faol ko'maklashish hamda ular haqida qayg'urish xosdir. Bolalar kitob, she'r va xalq qo'shiqlari bilan takroran uchrashishga intiladilar. Ular dono fikr, hazil, qofiyadosh so'zlardan zavqlanadilar va ularni esda saqlab qolishni hamda o'z nutqida qo'llashni xohlaydilar.

Katta guruhga kelib bola:

- O'ziga yoqqan nechta asarlar nomlarini aytishi; senga qaysi kitob yoqadi? U nima haqida? Bu ertakda kimlar haqida hikoya qilinadi? Bu ertakda yana kimlar bor? Ular nima qildilar? Bularning barchasi qanday tugadi? Tasvirlangan manzralardan yoqqan tomoni nima uchun yoqdi, kabi savollarga javob bera olishi mumkin;

- Suratlarini o'ziga tanish bo'lgan ertaqdagi voqealar rivojiga qarab terib chiqishi mumkin. Agarda suratlar ichidan ortiqcha personajning surati chiqsa, bola uni chetga olib qo'yadi, biroq pedagog iltimosiga ko'ra, agar ushbu qahramon ham ertakda ishtiroq etsa nima ro'y bergan bo'lishi ' mumkinligini o'ylab topadi;

- O'zi xohlagan kichik she'r (ovunmoq) yoki ritmik tashkil etilgan matnni (bo'g'irsoq qo'shig'i, ertakning ayrim leytmotivlari) emosional tarzda aytib berishi mumkin. Bunda tabiat manzaralari alohida ahamiyat kasb etib, bolani o'ziga tortadi.

- Mustaqil faoliyatda — o'yinda, rasm chizishda va boshqa kundalik vaziyatlarda adabiy obrazlardan foydalanadi. Bu jarayon orqali tasvirlash suratlar orqali ifoda etish zarur.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos bo'ladi:

- Qahramonlarga qayg'urish va ularga hamdard bo'lish, shu tufayli bevosita tashqi ifodalangan emosionallikning pasayishi;

- Voqealar zanjirini tutish va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turli xil mazmunli aloqalar o'rnatish qobiliyati;

- Qahramonlarning tashqi harakatlarini ko'rish va qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni tushunish, ularning yashirish niyatlari ma'nosiga va harakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish;

- Hosil bo'lgan voqea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko'proq ertakka o'xshash bo'lishi uchun adabiy vaziyatni talqin qilish va o'zgartirishga urinish;

- Janr asosi (ertak, hikoya, she'r) va maqbul mavzularning (hayvonlar, sehrgarlik ko'rinishlari, bolalar va boshq.) paydo bo'lishi;

- Tilning ayrim ifodali vositalarini payqash qobiliyatining paydo bo'lishi;

- Adabiy asarlarning xarakterli tuzilmasi va shakli haqidagi tasavvurlarni o'z ijodida ifodalash (kompozitsiyalarning uch qismliligi, adabiy qahramonlarning asosiy harakatlari va boshq.).

Besh-olti yoshli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari — bolalarning psixologik rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo'lgan uyg'unligadan iborat. Bir tomondan — bolalar yuqori ijodiy sayaohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinchi tomondan — besh-etti yoshli

bolalarning taqlidchilikka, me'yorilikka intilishi hammaga yaxshi ma'lum. Bola qoidalarni, harakat usullarini o'zlashtirishga intiladi va u bunga qodirdir. YUqori baholanadigan natijalarga erishish uchun unda rbrazli stereotiplar oson shakllanadi va ular bolaga adab^sh matnni talqin qilish hamda uni to'g'ri tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Biroq, adabiy qahramonlarni faqat «so'zda» tushunish va ularning harakatini axloq me'yorlari nuqqai-nazaridan baholash tasvirlanayotgan vaziyat ma'nosiga kirib borilganlikdan dalolat bermaydi. Bola «yashab ko'radigan» ziddiyatli vaziyatlarni gavdalantirish natijasidagana ularning badiiy obraz va muallif g'oyasini tushunishi mumkin bo'ladi. Bu nafaqat axloqiy nomuvofiqshklarga, balki universal bilish muammolariga ham taalluqlidir, zero badiiy asarlar ularning ko'p qirrali talqinlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bunday tushunish ko'pincha verbal emas, balki obrazli ifodalangandir (tanlov harakatida, obrazli harakatda, suratda, o'yin syujetida, voqealarni o'ylab topishda va boshq.)- Bolaning individual xususiyatlari uning faoliyatning reproduktiv yoki ijodiy turlarini afzal ko'rishiga yordam beradi. Adabiy asarlar mogivlari bo'iicha sahnalashtirish o'yinlari reproduksiya va ijodkorlikning estetik imkoniyatlarini o'zida birlashtirgan shakl hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdaga bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish sohasida pedagoglar va ota-onalar oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- Bolalarni yuqori badiiy saviyadagi adabiyotlarga oshno qilish, ularda adabiy-badiiy taassurotlar zahirasini shakllantirish;

- Ifodali badiiy nutqni shakllantirish;

- Bolalarga kichik prozaik matnlar mazmunini emosional va ifodali tarzda etkazish hamda kichik she'rlarni yoddan aytib berishni o'rgatish. Ma'lum adabiy asarlarni sahnalashtirishda ishtirok etish.

- Bolalarda adabiy asarlarning (xususan, ertaklarning) o'ziga xos tuzilmasi, tipik personajlar va syujetli-mavzuli birliklari hamda ularni

ijodiy qo'llash usullari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;

- Asosini bolalarning adabiy obrazlarni talqin qilishi tashkil qiladigan tasavvur shakllarini rivojlantirish;

- Bolalarda badiiy obrazning rivojlanishi, o'zgarishi, uning ko'p qirraliligi va ko'p tomonlama bog'liqligi haqidagi tezkor tasavvurlarni shakllantirish;

- Bolalarda adabiyotlarni individual tarzda afzal ko'rishni rivojlantirish;

- Bolalarning kitobga nisbatan estetik madaniyat asari sifatidagi munosabatini rivojlantirish, ularni qo'lyozma kitoblar yozishga jalb qilish. Shu bilan birga ota-onalar kitob tanlayotganda tabiat hodisalari aks etgan yorqin va manzarali kitoblarni tanlashlari maqsadga muvofiq.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish uchun pedagogik ishlar mazmuni va shart-sharoitlarini to'g'ri belgilash zarur. Ular qanday bo'lishi lozim?

Bolaning badiiy adabiyot bilan o'zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijgimoiy va nutqiy rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Biroq shu bilan birga faoliyatning estetik xususiyatlari buzilmasligi lozim, bolalarning imkoniyatlari esa sxematizm va taqlidchilikdan iborat bo'lib qolmasligiga kerak. Ushbu maqsadda pedagog quyidaga qator usullardan foydalanishi lozim:

Bolalarning diqqat-e'tiborini alohida adabiy asarning badiiy qimmatiga — she'rlarning obrazli ifodaliligiga, hikoyada syujetning kutilmagan rivojiga qaratish.

Bolaning adabiy asarni yoki o'zi to'qigan asarini ijro etishi (guruhda qayta hikoya qilish, yakka tartibda ifodali o'qish va kattalar bilan dialogda o'qish) uchun emosional boyitilgan ijro muhitini yaratish. Biroq, badiiy asar faqat so'z bilan aytilmasdan, balki uning ayrim yorqin jihatlari bolalar va pedagoglarning birgalikdagi harakatlari natijasida sahnalashtirilishi, unga musiqiy ishlov berilishi, harakatlar, suratlar, konstruktiv modellar bilan ko'rsatilishi mumkin.

Pedagog bolalarga yaxshi ma'lum bo'lgan an'anaviy (hayvonlar va sehragarlar haqida) xalq ertaklari va noan'anaviy (bolalar, tabiat hodisalari,

predmetlar haqida) zamonaviy mualliflik ertaklari ruhida o'z ertaklarini to'qishlari uchun sharoit yaratib berishi lozim; bolalarni ularning o'z hayotlarida yuz bergan qiziqarli voqealar haqida hikoyalar tuzishga undash zarur.

Bolalarning adabiy asarlarning o'ziga xos tuzilmasi va tipik personajlari haqidagi tasavvurlaridan foydalangan holda pedagog ushbu elementlar asosida «Agarda bo'lsa, nima bo'lar edi» toifasidagi ijodiy o'yinlarni uyushtirishi lozim. Bunday o'yinlarda tipik qahramonlar, syujet elementlari erkin qo'shiladi, natijada g'ayrioddiy va kutilmagan birikmalar vujudga keladi.

Shuningdek, obrazga kutilmagan va qarama-qarshi yo'nalish beruvchi alohida so'zlar va jaranglashlar bilan o'tkaziladigan o'yinlar ham muhimdir. Pedagog bolalarning qofiya bilan o'yinlari, so'z ijodkorligi, she'rni davom ettirish va she'r to'qish, tashbehdar va taqqoslashlar o'ylab topishlariga asoslangan o'yinli hamda kulgili vaziyatlarini rag'batlantiradi. Masalan, adabiy asarlar personajlarining xarakterini aks ettiruvchi yangi ifodali ismlarni, yoki asarda obrazli tasvirlangan narsalar va hodisalar uchun yangi nomlarni o'ylab topish.

Pedagog bolalarning nisbatan yirik hajmdagi adabiy asarlar syujetlari asosida o'yinli «xayolotdagi olamni» yaratishlariga ko'maklashishi lozim. Masalan, yirik hajmdagi adabiy asar (mualliflik ertagi) bilan tanishtirishda u guruhga ushbu ertakning «xayolotdagi olamini» olib kirishi va bir necha kun mobaynida (sayrda, o'yinlarda) bolalar bilan birgalikda uning ichida «yashashi» mumkin.

Estetik qabul qilish va ijodkorlikni rivojlantirish uchun asarlarni mavzusiga qarab guruhlashdan foydalanish samaralidir. Bu bolalarga turli asarlarda tasvirlangan obrazning variativligini va uning bir asar doirasida rivojlanishini; aynan bir xil mavzu yo'nalishlarini ko'rib chiqishda kontekstlarni o'zgartirish, obrazli ifodalar turli shakllarining o'zaro bog'liqligini (so'z, harakat, tovush, tasvir) namoyish qilish imkonini beradi.

Shuningdek, quyidagi shakllar ham mumkin: pedagog bolalarga asarlar guruhini tanishtiradi va ular asosida ishni bolalarning ochiq turdagi universal bilish muammolarining (tirik va o'lik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik

muammolari) turlicha obrazli echimlarini qidirishlariga yo'naltiradi. Ravshanki, qidiruv jarayonida muammolarning o'zlari umumlashtirilgan ko'rinishda shakllanmaydi, balki faqat turli adabiy obrazlar va syujetlar, shuningdek bolalarning o'zlari tomonidan vujudga keltiriladigan vaziyatlarning birgalikdagi muhokamasi ro'y beradi, xolos.

Dialog — pedagogak ishlarning etakchi vositasi bo'lishi lozim. Pedagog bolalarning adabiy asar bo'yicha ijodiy dialogda, muammoli vaziyatlarni hal etishda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bolalar bir-birlarini to'ldirganlari holda adabiy asar mazmunini birgalikda tasvirlaydilar, muhokama jarayoniga talqin elementlari va ta'riflangan voqealarni, adabiy qahramonlarni va ularning hatti-harakatlarini baholashni olib kiradilar. Dialogik muhokama jarayoniga pedagog adabiy mazmuni muammolashtirish elementlarini, ya'ni: talqinlarning bir xil emasligi, ochiq turdagi savollarni qo'yish va ular bo'yicha mulohaza yuritishni (masalan, ertakni aytib bo'lgandan so'ng undan nima qoladi?) olib kirishi zarur.

Pedagog o'z ishining samaradorligini nafaqat bolalarning mashg'ulotlarda o'zlarini qanday tutishlari bilan baholaydi, balki u ularning erkin faoliyatdagi xulq-atvorini kuzatadi: adabiy mavzudagi o'yin va suratlar syujetlarini qayd etadi, bolalarning fikrlarining mazmuniga, ularning mustaqil so'z ijodkorligiga e'tibor beradi; bolalarning kitoblar bilan harakatlarini — yakka tartibda yoki birgaliksa uni ko'rib chiqishlari, o'qishlarini rag'batlantiradi. Pedagog bolalar savollariga javob beradi va ularga yoqib qolgan asarlar (dasturdagi va dasturga kiritilmagan) mazmuni bo'yicha ular bilan yakka tartibda suhbatlashadi.

Pedagog bolalarning eng qiziq fikrlarini, ularning shaxsiy tajribasiga oid hikoyalarini, bolalar tomonidan o'ylab topilgan she'rlar va ertaklarni to'plashi lozim. Ushbu materiallar asosida bolalarning o'zlari tomonidan «kitob» yaratish ishlarini uyushtirish zarur. Bu bolalar tomonidan to'qilgan ertaklar, shaxsiy tajribaga oid hikoyalar, qo'shiqpar, sanoq she'rlarning bolalar rasmlari bilan bezatilgan to'plami, qo'lyozma jurnali va komikslari bo'lishi mumkin.

Guruhda o'qib chiqilgan, bolalar suratlari, variantiv syujetlar, improvizasiyalar va to'qib, oxiriga etkazishdan iborat bo'lgan u yoki bu adabiy asarlar motivlariga oid «kitoblar» ham aynan shunday tarzda yaratilishi mumkin.

Pedagogning bolalarga o'zining qaysi adabiy asarlarni yoqqirishini ma'lum qyushshi, o'zining badiiy ta'bi va aqliy faolligini namoyish qilishi ularni ijodiy rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish borasida to'g'ri amalga oshirilgan ishlar natijasida etti yoshga kelib bolada quyidagi rivojlanish ko'rsatkichlari shakllanishi lozim:

- Bola o'ziga yoqqan bir nechta adabiy asarlar nomlarini aytishi mumkin.

- Kichik she'r yoki she'riy asardan kichik parchani ifodali o'qib berishi mumkin.

- O'zi tanlagan asarni mustaqil ravishda yoki pedagog yordamida hikoya qilib berishi va quyidagi savollarga javob berishi mumkin: u shunga o'xshash boshqa asarlarni ham biladimi? Ularning o'xshashligi nimalardan iborat? (o'xshash personajlar, syujet harakatlari);

« Kitobga qiziqish paydo bo'ladi: o'qilgan kitoblarni mustaqil ravishda varaqpab chiqadi, mazmunini aytib yoki o'qib beradi, uydan sevimli kitoblarini keltiradi.

»Ertak syujetiga mos tarzda qo'shimcha personaj kiritadi, ushbu personaj qo'shiladigan vaziyatlarni to'qib, qo'shib qo'yadi.

«Yaxlit ertak to'qishi mumkin, bunda u uning ehtimoliy qahramonlarini tasvirlash vositalariga tayanadi, ayni paytda ertaklarga xos mazmun-mavzu birlygidan, tipik kompozisiyalar va stilistik vositalar to'plamidan ham foydalanadi.

XULOSALAR

Badiiy adabiyot bolalarni har tomonlama tarbiyalashning ta'sirchan vositasi bo'lib, u ular nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan hissa qo'shadi.

• Badiiy adabiyot she'riy obrazlar orqali bolaga jamiyat, tabiat hayoti, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlarni tushunishga yordam beradi, emosiyani boyitadi.

• Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarda insonparvarlik his-tuyg'ularini, hamdardlik, yaxshilik, kichiklar, ota-onalar va oilaning *katta* a'zolariga nisbatan g'amxo'rlik ko'rsatish kabi hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi.

• Bolalar badiiy asarlardan estetik va axloqiy tasavvur oladilar.

• Nozik yumor, sanoq she'rlar, hazil-huzullarni o'zida jamlagan xalq asarlari dangasalik, qo'rqqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash (egoizm) kabi sifatlarga nisbatan pedagogik ta'sir ko'rsatishning ob'ektiv vositasi hisoblanadi.

• Bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishni ularning yosh imkoniyatlari, nutqiy rivojlanish va adabiy asarlarni qabul qila olish darajasini hisobga olgan holda o'tkazish zarur.

• Ilk yoshdagi bolalarning (1-3 yosh) badiiy asarlarni qabul qilishlarining asosini ularning badiiy asarlarga nisbatan emosional munosabati, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, qahramonlarni tanish va ular haqida qayg'urish qobiliyatlari tashkil etadi.

• Ushbu yosh bosqichida maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaning vazifasi — bolalarni adabiy rivojlantirish poydevorini hozirlash, ularni bo'lajak o'quvchilar sifatida shakllantirishdan iboratdir.

« Kattalarning (pedagoglar, ota-onalar va boshq.) badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilib berish jarayoniga emosional qo'shilishlari ilk yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim shargi hisoblanadi.

• Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarni hamda unga nisbatan munosabatni rivojlantirish zarur.

• Maktabgacha kichik yoshdagi bola (3-5 yosh) san'atga, uning badiiy obrazlariga oshno bo'lish, badiiy faoliyatni egallash borasida keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Bu yoshda emosional munosabat bildirish va sensor qobiliyatlar bilan bir qatorda badiiy fikrlash ham qaror topadi.

• Besh yoshlarga kelib badiiy asarni emosional-yaxlit qabul qilish shunga olib keladiki, bola syujetning ayrim obrazlari va elementlarini ajratgani holda ular bilan «o'ynashni» boshlaydi. Ayni paytda u uni to'qib to'ldiradi, ayrim lavhalarni takomillashtiradi, o'z ertaklarini to'qiydi, adabiy janrlarni (ertak, hikoya, she'r) farqlay boshlaydi, tilning ayrim ifodali vositalarini ko'rishga qodir.

• Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirishga oid pedagogik ishlarni ikki yo'nalishda olib borish lozim. 1- badiiy asarni yaxlit va tugallangan estetik ob'ekt sifatida qabul qilishni tashkil etish bilan. 2 — ayrim badiiy obrazlarni o'zgartirish va bir nechta obrazlarni sintez qilish jarayonida bolalarda tasavvurni rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish.

• Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning (5-7 yosh) adabiy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularda qahramonlarga qaygurish va hamdard bo'lish; voqealar zanjirini tiklash va asar ichida hamda asarlar o'rtasida turli xil mazmunli aloqalar o'rnatish; qahramonlar xulq-atvoridagi ochiq motivlarni ko'rysh va tushunish qobiliyatlari paydo bo'ladi.

• Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning psixologik

rivojlanishidagi ikki qarama-qarshi tamoyilning ziddiyatli birikuvi ularning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi: 1-yuqori ijodiy salohiyat, 2-taqlidchilik va me'yoriylikka intilish.

• Maktabgacha katta yoshdagi bolaning badiiy asar bilan o'zaro hamkorligi uning estetik, bilish, ijtimoiy va nutqiy rivojlanish potensialini amalga oshirish imkonini beradi.

• Dialog — maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlarning etakchi vositasi bo'lishi lozim.

• Badiiy adabiyot bilan tanishuv nutqni har tomonlama rivojlantirishga, ya'ni: tovush madaniyatiga, grammatik tuzilishiga, lug'atga, ravon nutqqa ta'sir ko'rsatadi.

1. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda bolalar badiiy adabiyotining ahamiyati
2. Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish
3. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish
4. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirish
5. Bolalarni har tomonlama tarbiyalashda bolalar badiiy adabiyotining ahamiyati
6. Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.
7. She'riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o'z ta'sir kuchiga ko'ra turlicha bo'ladi: hikoyalarda bolalar so'zlarning lo'ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she'rlarda o'zbekcha nutqning musiqiylikni, ohangdorligini ilg'aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqlik va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko'rsatadi.
8. Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda

insonparvarlik his-tuyg'ulari - bironing dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uyg'ona boshlaydi. Bu prinsipiellik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir. His-tuyg'ular bilimdan oldin keladi; kimki haqiqatni his qilmagan bo'lsa, u buni tushunmagan va tanimagandir.

9. Xalq - bolalarning betakror o'qituvchisidir. Xalq asarlaridan boshqa hech qaysi asarlarda qiyin talaffuz qilinadigan tovushlarning bunday qoyilmaqom qilib joylashtirilishini, jarangiga ko'ra bir-biridan zo'rg'a farq qiladigan so'zlarning hayron qolarli darajada yonma-yon terilishini uchratish qiyin. Beozor hazillar, nozik yumor, sanoq she'rlar — pedagogik ta'sir ko'rsatishning samarali vositasi, dangasalik, qo'rqqoqlik, o'jarlik, injiqlik, faqat o'zini o'ylash (egoizm)kabi xislatlarga qarshi yaxshigina «malhamdir».
10. Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayolot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarda va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar. Va albatta bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarning (ota-onalar, pedagoglar) o'qib chiqilgan asarlar bo'yicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan asar bo'yicha haddan tashqari ko'p nasihat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon etkazadi: mayda-chuyda savollar bilan «sohib tashlangan» asar bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini yo'qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo'qoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur.

KD.Ushinskiy shunday yozadi; «Bola ona tilini o'rganar ekan, u faqat shartli tovushlarnigina o'rganmaydi. Balki ona tilining ona ko'ragidan ma'naviy hayot va kuchni ham emadi. U bolaga tabiatni shunday tushuntiradiki, boshqa hech bir tabiatshunos bunga qodir emas, u atrofdagi odamlar xarakteri, u yashayotgan jamiyat, uning tarixi va intilishlarini shunday tanishtiradiki, boshqa hech qanday

tarixchi bunga qodir emas; U bolani xalq udumlari, xalq she'riyatiga shunday olib kiradiki, boshqa hech bir estetik bunga qodir emas, nihoyat u bolaga shunday mantiqiy tushunchalar va falsafiy qarashlarni beradiki, adbatta, boshqa biron-bir faylasuf bunga qodir emas»¹. Buyuk pedagogning ushbu so'zlarida nafaqat ona tilini o'zlashtirish natijalari, balki uni o'rganish metodi: «nafaqat ko'p narsani o'rgatadigan, balki hayron qolarli darajada oson, qandaydir etishib bo'lmaydigan metod asosida o'qitadigan»¹ o'qituvchi tiliga ishonch ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, ona tilidagi muayyan badiiy asarni egallashda bolalarga yordam berar ekan, pedagog har tomonlama tarbiyalash vazifasini ham bajaradi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo'yadi. Yoshi o'sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. SHundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur.

Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Ilk yoshdagi bolalarni bolalar badiiy adabiyoti bilan taiishtirish

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi - bu ularga nisbatan emosional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni: folxlor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar bolalarga juda qiziqarlidir.

Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folxlor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga taqlid qiladi. Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan

ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustrasiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi.

Kichkintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim.

Ilk yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan folklor asarlari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki, u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar: «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Uycha», «Chipor tovuq» va boshq.

1.3. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirish mashgulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishga qo'yiladigan talablar.

Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirish mashgulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishga qo'yiladigan talablar, bugungi kun tarbiyachisidan judda katta ma'suliyatni talab qiladi. Chunki tabiatdagi voqea-xodisalar, dunyodagi global muammolarni bolalarga yetkazishda tarbiyachi o'zi xabardor bo'lishi bilan birga, o'zi namuna bo'lishi kerak.

Ta'lim tizimining birinchi bosh bo'g'ini hisoblangan maktabgacha tarbiya muassasalari, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. tabiatini muhofaza qilish, ekologik ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati kattadir. Yosh avlodni etuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan, o'z Vatanini sevuvchi, uni e'zozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu sohaning urni beqiyos. Bola shaxsining mukammal shakllanishda tabiat, unda bo'ladigan voqea-hodisalar, tabiat qonuniyatlari muhim rol oynaydi. Bolalar mana shular bilan tanishar ekanlar ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyo qarashlari mujassamlashib, shakllanib boradi va ular tabiatini asrash, extiyot qilish va muhofaza kilish ruhida tarbiyalanadilar.

Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan, kamol toptirgan. Shunday ekan. biz tabiatni e'zozlashimiz, unga tugri munosabatda bulib, tabiatni yana ham ko'rkamligiga, abadiyligiga uz hissamizni qo'shishimiz zarur. Yosh bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go'dakligidanoq, qoynida o'sadi, ulg'ayadi kamol topali. Bolani go'dakligidap boshlab tabiatdan zavq olishga. tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borishimiz zarur.

Bolalarni tabiat qonun-qoidalari bilan tanishtirishning ahamiyati shundaki, ularning to'g'ri o'sib ulg'ayishiga, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga olib keladi. Bu bolaning shakllanishida, tabiatga, ona-Vatanga, tabiat boyliklariga bo'lgan mehr-muhabbatni oshiradi. Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish ayrim kishilarning ishi deb qaralmasdan barchamizning ishimiz ekanligi zedan chiqarmasligimiz kerak. Bog'cha yog'adagi bolalarning xar tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayon turli vositalar, metodlar orqali amalga oshiriladi.

Tabiat rang-barang. Uning imkoniyatlari ham cheksiz. Biz. tarbiyachilar, ana shu rang-baranglikni, imkoniyatlarni ko'ra bilishimiz, ulardan tarbiya jarayonida oqilona foydalanishimiz kerak. Biz nima uchun bolalarni har tomonlama kamol toptirish kerak deymiz? Chunki inson organizmining imkoniyatlari beqiyosdir. Bu imkoniyatlar ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'proq foizini tashkil etadi. Faqat biz tarbiyachi-murabbiylar uni vaqtida parvarish qilsak. uning o'sib voyaga etishi uchun sharoit yaratsak. u, albatta, kurtak yozib xosil beradi.

Ma'lumki, har bir odam shaxsining o'ziga xos xususiyatlari ya'ni ehtiyoji, temperament tinlari, xarakter xislatlari, iste'dodi, qobiliyatlari bo'ladi. Bu xususiyatlarning rivojlanishi shakllanishi bevosita bola yashaydigan muhitga, tevarak-atrofga bog'liq. Demak, bola psixologiyasi ham tabiat bilan chambarchas bog'langan bo'ladi va ular bir-birini to'ldiradi, mustahkamlaydi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi boqcha sharoitida xilma-xil bo'lib bunda bolalarning xususiyatlari, tabiat haqidagi tushunchasi hisobga olinib, elementar tushunchalardan tortib, bolalarga mos eng murakkab tabiat haqidagi tushunchalarni va tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarni bilib olishga o'rgatadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasining ana shunday o'ziga xos shakllari bilan chegaralanmasdan, mavjud o'zgartirish, yangi ish shakllarini ishlab chikish, haet tajribalarini umumlashtirib har bir tarbiyachi uzining yashaydigan muhiti, sharoitiga moe usullarni topib amalda qo'llashlari kerak. Har bir tarbiyachi ijodiy izlanuvchan, kuzatuvchan, tabiatdan ilhom oladigan. hayotda dadil qadam tashlaydigan bo'lmogi kerak Bugungi talaba - ertangi mutaxassis. Shunday ekan hozirgi talabalarga qoyilayotgan talab yanada kattadir. Chunki hayotimiz doimo rivojlanishda, fan-gexnika, ta`lim-tarbiya sohasida yangi-yangi kirralar ochilmokda.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini rejalapggirishdagi asosiy qo'llanma, manbaa "Bolalar bogchasida ta`lim tarbiya dasturi" xisoblanadi. Bunda umumpedagogik qoidaga va rejalashtirish printsiplariga amal qilinadi. Rejalashtirishning asosiy printsiipi bola shaxsini aqlan, ahloqan shakllantirib, ularda tabiatga doyr bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilish tabiatga nisbatan ilmiy nuqtai nazardan qarash boyicha oddiy tushunchalar berish, tabiatda katgalar mehnatini hurmat qilish va uni qadrlash, usimlik va hayvonlarni sevish hamda asrash ruxida ta`lim berishdan ibvratdir. Buni amalga oshirish uchun pedagogax tarbiya ishlari turli rejalashtirilgan bo'lishi, bolalarning yosh hususiyatlari e|o'^bga olinib ta`lim-tarbiya berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilinishi, bunda turli-tuman ta`lim-shakllari va bolalar faolligi xisobga olingan bo'lishi lozim. Reja aniq; tizim asosida izchillik bilan oddiylan murakkabga qarab bir-biri bilan bogliq turli uslub va shakllardan iborat bo'lishi kerak. Rejalashtirishnippg bosh maqsadi "Bolalar bogchasining ta`lim tarbiya dasturini" to'lik, amalga oshirshpdir. Shuning uchun ham yilning har bir fasli shunday rejalashtirilishi kerakki u uggan fasl xulosasi va kelgusida kilinadigan ishning davomi bo'lishi kerak. Rejaga turli xil

ishlarni kiritilishi tarbiyachiga bolalarni har tomonlama tarbiyalashga yordam beradi.

Yillik reja umumiy vazifani qamrab olib butun pedagogik jamoaning maqsadini uziga mujassamlashtiradi. Ana shulardan biri tabiat bilan tanishtirish ishini maqsadga muvofiq tashkil qilishdir. Yillik rejada tarbiyachi bilan birga tabiat bilan tanishtirishning uslubiy ish shakllari rejalashtiriladi. Bunda pedagogik majlislarning mazmuni tabiat bilan tanishtirish sohasidagi ilgor tarbiyachilarning ish tajribalarini yoyish va ularni tuplash imkonlari (Mashg'ulot kuzatish, uni muhokama qilish, ekskursiya va hokozolar) Rejada tabiatshunoslik xarakteridagi, uslubiy mavzularidagi topshiriqlar, yo'llanmalar o'tkazish rejalashtiriladi-

Yillik reja ota-onalar bilan tabiatni muhofaza qilishga doyr pedagogik tashvirkat tarkibot ishlari borish ham kiritiladi-

Yillik reja:

a) er maydonchasini tashkil qilish, ya'ni mevali daraxt ekish, poliz ekinlari uchun er ajratish va hokozolar.

b) tabiat burchagini tashkil etishda tarbiyachiga ko'maklashish ya'ni uni jixozlash uchun kerakli ko'rgazmalar bilan ta'minlash.

v) turli ko'rgazma qurollar keltirish.

Istiqbol rejaları bir guruh uchun tuziladi. Uni yil fasllari boyicha tuzish maqsadga muvofiq. Chunki bu tabiatning rang - barang xususiyatlarini hisobga olish va tabiat hodisalari bilan bolalarni tanishtirishga imkon yaratadi. Istiqbolli reja tarbiyachiga dastur materiallarini tugri taqsimlashga yordam beradi. U bolalar bilimini, malaka va kunikmalarini ma'lum tizim asosida izchillik bilan borishini ta'minlaydi. Rejada jonsiz tabiat haqidagi bilim. usimliklar haqidagi bilim, hayvonlar haqidagi, tabiatda kattalar mehnati haqidagi ma'lumotlar kirish chadi Rejada tabiat burchagiga quyilgan vaqtancha va doimiy yangi ob'ektlar ham kiritilishi kerak. Bularni avvaldan aniqlashtirishdan maksad, usimlik va hayvonlar uchun ovqat, sharoit tayyorlab qoyishdir.

Rejada ta'limiy uyinlar. kinofil'm va diafilmlar. tabiatga doyr adabiyotlar, tarbiyachilar uchun tabiatga oid lugat adabiyotlari kiritiladi. Istiqbolli rejada

bolalarning er maydonchasi va tabiat burchagida bajaradigan mehnatlari o'z ifodasini tonadi. Bu ishlarni oddindan rejalashtirishdan maqsad zarur mehnat asboblari sharoitini oldindai tayyorlab quyishdir. Asosiy kuzatish jonli va jonsiz, tabiatda kishilar mehnatini faellar buyicha o'zgarishini aniklashdan iborat.

Tabiat bilan tanishtirish ishini rejalashtirishning asosiy shakli - kundalik ish rejasini tuzishdir. Bu reja yilning har xil faslini o'z ichiga oladi. Yosh tarbiyachilar bajaradigan ishlarini 2 xaftaga tuzib olishlari maqsadga mufovikdir.

Kundalik rejani tuzishda mashg'ulot utishning rejalashtirishdan boshlash lozim. Mashg'ulot - dastur mazmuni bulgan tabiat bilan tanishtirish ishini kunlik hayotda amalga oshirish va tabiatshunoslik ishining asosiy shaklidir. Kundalik rejada tabiat burchagidagi kuzatish va mehnatning asosiy mazmuni uz aksini topishi kerak. Rejada kuzatashning maxsadi va kuzatish yullari va kuzatilgan ob`ektning natijalarini taxlil kilish ham kundalik rejada tabiat materiallari asosida harakatli uyinlarni bajarish ham qayd etiladi. Bajarish uchun qanday jihozlar zarurligi aniklanadi. Tabiatshunoslikka doyr ta`limiy uyinlardan foydalanishda ularning shakli, mazmuniga qarab ishlatish rejplashtiriladi. Tabiatshunoslikka oid ishlarni rejalashtirganda har bir yosh guruhning xususiyati hisobga olinib, ularning asosiy shakllaridan foydalanilib tabiat bilan tanishtirish uslublari asosida tuziladi. Tarbiyachi bajarilgan ishni kundalik ish rejasida hisobga olib boradi.

Dasturning har bir mavzusida amaliy mashg'ulotda o'rganiladigan masalalar ajratilgan. Dasturda tavsiya etilgan usullar va uslublar ukuvchilarning mustakil faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi.

Dastur asosan 7 qismdan iborat bulib, ular quyidagilar.

1. Bog'cha bolalarining tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati va vazifalari.
2. Mahalliy o'lka tabiati.
3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish bo'yicha bogcha dasturi.
4. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari va uslublari.
5. Tabiat burchagi va er maydonchasi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy vazifasidir.
6. Bolalarni uy va yovvoyi hayvonlar bilan tanishtirish.

7. Bolalarni yil faellari bilan tanishtirish: kuz, kit, bahor, yoz. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish kursini maqsadga muvofiq uqitishda o'quv qurollarini ahamiyati beqiyos katta. O'quv qurollarini turi juda kup bo'lib, ular har bir mavzu mazmuniga qarab o'zgarib, yangilanib boradi. Kollejlarda tabiatshunoslikka doir kabinetlarga har bir yosh guruhning xususiyatini hisobga olgan holda o'simliklar joylashtiriladi. Kabinetda tabiat burchagi ham tashkil etilib. unda akvarium, kushlar, hayvonlar ham saqlanishi mumkin.

Mashgulot nomi: Tabiat bilan tanishtirish.

Mavzu: Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning ahamiyati.

Katta gurux.

Mavzu: Mevali va mevasiz daraxtlar bilan tanishtirish.

Mashgulot maqsadi: Bolalarga mevali va mevasiz daraxtlar haqida ma'lumotlar berib, ularni ajrata olish ko'nikmasini shakllantirish.

Kutilayotgan maqsad: Interfaol usullarni qo'llash orqali bolalarni jamoa bo'lib, ishlashlarini shakllantirish va bir-biriga bo'lgan hurmatni shakllantirish.

Kerakli jihozlar:

Ko'rgazmali materiallar rasmlar, barglar, gullar, mevalar, oq qog'oz, plamaster turli xil urug'lar, oq qog'ozda qora qalamda chizilgan mevalar to'plami, videoproektiv va videofilmlar.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Salom shirintoy bolajonlar.

Bolalar:Assalomu alaykum.

Tarbiyachi: Valaykum assalom. Bugun biz sizlar bilan tabiat bilan tanishtirish darsimizda mevali va mevasiz daraxtlar haqida suhbatlashamiz.

Tarbiyachi: Bolajonlar qanday daraxtlarni bilasizlar?

Bolalar: Olma, olcha, chinor, bodom, nok, tol....

Tarbiyachi:Qani Nozima qizim sen aytchi qanday mevalarni bilasan?

Nozima: Olma, olcha, gilos, o'rik, bexilarni bilaman.

Tarbiyachi: Sardor, senchi sen qanday mevalarni bilasan.

Sardor: Olma, shaftoli, bodomlarni bilaman.

Tarbiyachi: Barakalla aqlli bolajonlar juda ko'p mevalarni bilar ekansizlar.

Tarbiyachi: Tabiatda 2 xil daraxtlar bo'ladi bolajonlar. Bular mevali va mevasiz daraxtlar. Erta bahorda barg yozib gullab meva hosil qiladigan mevali daraxtlar hisoblanadi. Mn: olma, nok, shaftoli. Mevali daraxtlarni biz asosan ularni mevalariga qarab ajratib olamiz. Mevasizni esa bargi va tanasiga qarab ajratish mumkin.

Bolalar uchun amaliy ish:

Bolalar 2 guruxga bo'linib chizib keltirilgan mevalarni urug'lar yordamida bezatishlari va o'zlari yoqtirgan mevalar rasmini chizadilar.

Tarbiyachi: Bolajonlar berilgan vazifalarni yakunladinglarmi. Qani chizgan rasmlarni doskamizga ilib chiqamiz. SHunda kimni chizgan rasmi chiroyli chiqqanini ko'ramiz.

Tarbiyachi: Ikkala gurux ham bezatgan va chizgan mevalarning judda chiroyli chiqibdi. Bugun meni xursand qildinglar xammalaring chiroyli chizibsizlar.

YAkuniy qism:

Tarbiyachi: Bolalar mevali va mevasiz daraxtlar haqida ularni aytish haqida bilib oldinglarmi.

Bola: Xa bilib oldik.

Tarbiyachi: Unda sizlar bilan bugungi mashg'ulotimizni yakunlaymiz.

Mashg'ulot nomi: Badiiy adabiyot bilan tanishtirish. (10-15 minut)

O'rta guruh:

Mashg'ulot maqsadi: Bolani kitobni ko'rishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, muhabbat va zavqlanish ko'nikmasini shakllantirishda davom etish. Bolalarda badiiy asarlarni ruhan his qilish, uni tushunish, mazmunini so'zlab berayotganda shoshilmay, ravon ayta bilishni o'rgatish.

Kutilayotgan maqsad: Tarbiyachining bevosita rahbarligi asosida rollarni bo'lib berish orqali badiiy did, badiiy hissiyotni shakllantirish.

Kerakli jihozlar: Ertak qahramonlari ishtirok etgan ko'rgazmalar, qo'llanmalar.

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi : “Kambag'al va boy” ertagini o'ziga xos obrazlarga kirgan holda aytib beradi. Ertak qahramonlarining har biri ko'rgazmalar asosida ko'rsatiladi.

Tarbiyachi : Qani shirintoy bolajonlar ertak eshitishni xoxlaysizlarmi?

Bola: Xa eshitamiz.

Tarbiyachi : Unday bo'lsa juda yaxshi. Bugun men sizlarga “Kambag'al va boy” ertagini aytib beraman.

Tarbiyachi ertakni aytib beradi.

Tarbiyachi : Bolalar ertak yoqdimi?

Bolalar:-Xa yoqdi.

Tarbiyachi : Qani Asila ertakdagi qaysi qahramon senga yoqdi?

Asila-Dehqon menga juda yoqdi. CHunki u mehnatkash, saxiy inson ekan.

Amaliy ish.

Tarbiyachi-Bolajonlar qani endi bu ertakni o'zlarining aytib berasizlar. (Bunda tarbiyachi bolalarga rollarni bo'lib beradi).

Rustam-kambag'al dehqon

Munisa-boyning xotini

Rashid-xasis boy

Islom-laylak

Asila-kambag'al dehqonning xotini.

Tarbiyachi ayrim jummalarni o'qib beradi.

Rustam: Dalaga borib, oyog'i singan laylakni ko'rib, “Voy bechora laylak, oyog'inga nima qildi?” deb uyiga olib keladi.

Ertak davom etadi bolalar rollarga bo'linib o'zlariga berilgan vazifalarni sidiqidildan bajaradilar.

YAkuniy qismida:

Tarbiyachi mashg'ulot oxirida ayrim bolalarni rag'batlantiradi. O'zining xato va kamchiliklarini aniqlaydi. Uyga vazifa beradi. Ertakni takrorlab kelish.

II bob. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

2.1. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish shakllari.

“Kitob o'qimaydigan odam hayratlanarli darajada zerikarlidir”

Chinakam savodli kitobxonni tarbiyalash uchun bolada badiiy adabiyotni qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Psixologlarning fikricha, bu jarayonning zahirida bolaning intellektual, bilim olish, hissiy faoliyati mujassamlashgan.

San'at asarlarini , umuman badiiy adabiyotni idrok etishda, xususan psixologiyada bir-biridan keskin va sifat jihatdan farqlanadigan hamda bola shaxsining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ikki rivojlanish bosqichi qayd etiladi. Birinchi bosqich “ ikki yoshdan besh yoshgacha “ besh yoshdan boshlanib, butun umr bo'yi davom etadi.

Ikki yoshdan besh yoshgacha bo'lgan davr mobaynida bola katta rivojlanish yo'lini bosib o'tadi va maktabgacha kata yoshga yetib san'at asarlarini tushunadigan bo'lib qoladi. Bu davrga kelib u o'zining nafaqat individ sifatida anglaydi (oynada rasmda taniydi), balki o'zining ichki dunyosini kashf etadi hamda o'zini o'z fikrlari, hissiyotlari va xayolot olamiga ega bo'lgan shaxs sifatida qabul qila boshlaydi. Bir vaqtning o'zida bola boshqa kishilarning ham unikiga o'xshaydigan va o'xshamaydigan ichki dunyosi borligini, ular ham fikrlab va xissiyotlarga ega ekanligini tushuna boshlaydi. Shu davrdan adabiyotni anglashning ikkinchi bosqichi boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bola o'ziga xos kitobxon: duch kelgan barcha asarlarni u eshitish orqali qabul qiladi. Xayolida gavdalanadigan timsollar va manzaraga unda ikki xil fikr paydo bo'ladi. Bir tomondan, unda duch kelgan barcha narsalarni jonlashtirishga hamda o'yinlar olami va xayollar og'ushida yashashga moyillik xos bo'lsa, ikkinchidan u bu timsollarning haqiqiy emasligini tushunadi va badiiy asar qahramonlarni real odamdan farqlay oladi. Bolaning xayolot olami kitob sahifalarini jonlantirishga intilish uning juda muhim tomoni hisoblanadi, chunki bu-o'z ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniyatidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilish yoshga oid xususiyatlari:

Bolalar kutubxonasi uchun yangi kitoblarni to'plash yoki mavjudlarni yangilashdan boshlash kerak. Bu ishni bola bilan amalga oshirgan ma'qul. Kutubxonangizda bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarning bir necha turi bo'lishi mumkin.

- Bolakayni qurshab turgan atrof muhitdagi predmetlar aks ettirilgan kitob o'yinchoqlar;
- Muqovasi matnda so'z yuritilayotgan predmetning shakli bo'yicha kesilgan kitoblar;
- Harakatlanadigan figurali kitob panoramalar.

O'sib-unib kelayotgan bolaning o'zbek va xorijiy bolalar badiiy adabiyotining turli na'munalari turli janrlardagi adabiyotlar xalq og'zaki ijodi. Bolaning kitob bilan muloqotini to'ldirish rang –barang qilish uchun bolalar badiiy va folklor asarlarining foto va video kasetasini to'plash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bolaning kitob bilan tanishuvini imkon qadar ertaroq iloji bo'lsa, tug'ilishi bilan boshlash kerak. Albatta kichkintoyga kitob o'qimasdan, hikoya qilish yoki kuylash (agarda bu alla bo'lsa) ma'qulroq. Agarda ularning mazmuni bolaga tushunarli bo'lmasa ham onaning allalashi, bir maromdagi gaplarining yumshoq ifodasi bolaga ijobiy ta'sir etadi. Shu tariqa u ona tilining tovush va so'zlarini, Grammatik so'z qurilmalarini o'zlashtirib boradi. Ona tili ohanglari, vaqtni yaqinlar bilan qiziqarli kitob o'qib o'tkazish, kitobni estetik zavq baxsh etuvchi sehri olam sifatida idrok etishga o'rganish bular barchasi bolani asta-sekin kitobxonga bo'lgan munosabatini oshiradi.

Har oyda bolalar yangi ertak va bitta-ikkita hikoya bilan tanishadilar, she'r yod oladilar. Bolalarga hikoya qilib va o'qib berish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy so'z katta o'rin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, she'r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko'radilar.

Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarning go'zalligi, tilning ifodalaliligi, she'riy so'zlarning muzikaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotning qimmatini bolaning har jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatini, kishilarining mehnati va hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqeyalarni, bolalarning o'yinlari, ermakalri va qilayotgan mehnatlarini hikoya qilib beradi.

Bolalarni hajmi jihatidan uncha kata bo'lmagan asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotning bir qismi sifatida amalga oshiriladi. Boshqa hollarda esa yangi, hajmi jihatidan kata bo'lgan badiiy asarlar bilan (K.Raxim «Maqtanchoq», o'zbek xalq ertaklaridan »Och bo'ri«, R.Azizxo'jaev «Sovuq qiliq», Sh Perro «Qizil qalpoqcha» va hokazolar) to'liq tanishtiriladi.

Badiiy asarlarni o'qib berishdan, hikoya qilib berishdan, she'r yod oldirishdan avval, albatta tayorgarlik ishlari o'tkazilishi kerak. Ko'pgina muallimlar, olimlar badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotini yangi so'zlarni o'zlashtiruvchi manbaga aylantirib yubormaslikni uqtiradilar. Badiiy adabiyotdan foydalanadigan mashg'ulotlar g'oyat osoyishta sharoit yaratilishini talab etadi. Muhimi, badiiy asar mazmundagi hech bir narsa bola e'tiboridan, eshitishidan chetda qolmasligi kerak.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yilning ikkinchi yarmida bolalarni yangi, hajmi jihatidan katta, tili jihatidan sermazmun turlicha bo'lgan asarlar bilan tanishtirishni «So'zlarni o'zgartir» (tushuntir) degan mashq tarzida boshlash yaxshiroq. Bu mashq tarbiyachiga bolalar u yoki bu so'z iboralarini qanday tushunadilar, so'zlarni sinonimlar bilan almashtira oladilarmi va shunga o'xshash holatlarni aniqlab olishga yordam beradi. Ayniqsa eng asosiysi-bu mashq bolalar uchun yangi so'z bo'lgan so'zlarni, jummalarni esda saqlab qolishga, voqea hodisalarni aks ettiruvchi so'zlar asosida ularning xotira va nutqini boyitishga yordam beradi. Masalan: «U o'rmonning eng xilvat, chakalakzor erlariga borib qolibdi» xilvat, chakalakzor-qanday yerlar joylar. »Agar qochib ketsang, qo'limga tushgan kuning

g'ajib tashlaynan,-derkan.» Yangi so'zlarni bolalarga aytgach, tarbiyachi bolalarga, bugun eshitgan yangi so'zlar ertakda yashashini, hozir uni hikoya qilib berishini aytadi. Bolalar ertakni tinglab bo'lganlaridan so'ng, uning mazmuni ustida suhbat o'tkazish kerak. Bolalar uchun tavsiya etilgan asarlar hajmi jihatidan kichik bo'lganligi uchun ham bu asarlarni ikkinchi marta o'qib berish mumkin. O'qib berilgandan so'ng beriladigan savollar asar goyasini to'liq tushunib olishga yordam berishi kerak. Agar bolalar savollarga javob bera olmasalar, u vaqtda tarbiyachi so'zlarning va jumalarning ma'nosini tushuntirib berishi kerak.

Beriladigan savollar bola fikrini rivojlantirishga, hodisa va voqealarni umumlashtirishga, qahramonlarning xatti-harakatlariga to'g'ri baho bera olishning kalitini qidirib topishga yordam berishi kerak. Bu yoshdagi bolalar o'zlariga yoqib qolgan kitobni maqtashni yoqtiradilar. Bu borada avval ularga tarbiyachi yordam beradi. Men «Tulki bilan Turna» ertagini o'qib tugatguncha, siz juda hayajonlanib, tulkini yomon ko'rib, turnaga rahmingiz kelib o'tirdingiz. Turnaning ahvoliga achindingiz, u haqda qayg'urdingiz. Demak, bu kitob kulgili, quvnoq kitob emas, balki qayg'uli, g'amgin kitobdir.

Tarbiyachi sekin-astalik bilan bolalarni qahramonlarining hatti-harakatlariga mustaqil baho berishga o'rgatadi: «Men sizlarga yangi she'r o'qib berdim. Sh. Sa'dullaning «Lola va Mushuk» she'ri. Siz u haqda nima deyishingiz mumkin.» U qanday, quvnoq, sho'x, kulguli.

Besh yoshli bola nutqi, tili jihatidan rivojlangan bo'ladi, nutqi obrazli va mazmunli bo'lib boradi. Nutqning obrazli va mazmunli bo'lib borishi nutq rivojlanishining asosiy shart-sharoitlardan biridir. Tarbiyachi badiiy asarlarni o'qib berish jarayonidagi asardagi ayrim so'zlarni va jumalarni boshqa so'z va jumalarga nisbatan kuchliroq ovozda, ajratib o'qib berishi kerak. Biroq bu so'zlar va jumalar bola nutqining mahsuli bo'lishi uchun bolalarga bu so'z va jumalarni takrorlash, aytish imkonini berish kerak.

Masalan: tarbiyachi jumlaning boshlaydi, bolalar esa uni oxiriga yetkazadilar. Bunday analiz bolalarni ertak yoki hikoyani tinglash bilan asardagi voqea-

hodisalarni kuzatishga o'rgatibgina qolmay, balki qiziq so'zlar va iboralardan quvonishga o'rgatadi. Bolalarni asar tilining obrazlilikini his etishga va tushunib olishlariga fizkul'tura daqiqalari ham yordam beradi.

Asar o'qib berilgach, bolalar kuchli ta'sirlanadilar va shu asarni tarbiyachidan yana bir marta o'qib berishni so'raydilar. Vaqt yetishmasligi sababli tarbiyachi asarning biror joyini tanlab o'qib berish bilan chegaralanadilar, lekin vaqt o'tishi bilan asarda qaysi parchani o'qib berish kerakligini aytishga, belgilashga o'rganib oladilar.

Asardan parcha tanlash juda qiyin, ammo bola faoliyati uchun juda foydalidir. Bolalar bildirgan istaklar tarbiyachiga ular kitob mazmunini qanday idrok qilganligini analiz qilishga yordam beradi. Tarbiyachi dasturga kiritilgan asarlarni mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda takrorlashga harakat qiladi, o'qiydi, dramalashtirilgan hamda mazmunli rolli o'yinlarni tashkil etadi.

Bolalar asarlarni xotirasida saqlagan-saqlamaganligini tekshiriladi, adabiy ko'rgazmalar uyushtiriladi. Bu ko'rgazmada bolalar kitobning muqovasiga qarab, u qanday kitob ekanligini bilib oladilar. Ko'rgazma bolalarning istak va takliflari asosidagi asarni o'qib berish yoki hikoya qilib berish bilan tugallanadi. Mashg'ulotning bu qismi bolalar uchun juda qiziqarli bo'lib hisoblanadi.

Tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana, bolani yosh, ruxiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa tarbiya berishning samaradorligi oshadi.

Tarbiyachi har bir bolani imkoniyatlarini aniqlab olishi kerak, bolalar o'zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruhlariga bo'linadi:

Maktabgacha ta'lim muassasaining asosiy pedagogik vazifasi – bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va ularni barkamol qilib tarbiyalash o'qishga har tomonlama tayyorlashda ota-onalarga muntazam ravishda yordam ko'rsatishdan iborat:

Maktabgacha tarbiya muassasasi xodimlarining eng birinchi vazifasi – bolalar bogchasi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari va oilasining boshka a’zolari ongida bola tarbiyasida oila birinchi darajali ahamiyatga egaligi va har bir oila bolalarining faollashuvida oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning birligiga erishilgandagina kutilgan natijaga olib kelishiga chuqur ishonch uyg’otishdir. Bolalar bogchasi ota-onalarda pedagogik bilimlar asosini yaratadi. Ularda tarbiya haqidagi fanga qiziqish uyg’otadi.

Maktabgacha ta’lim yoshida bilim tez sur’atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so’ng mashg’ulotlar, bilish berish orqali amalga oshiriladi.

Tevarak atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga ya’ni analizatorlariga ta’sir etadi va sezgi xosil bo’ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. (Issik-sovuk, gadir-budur). Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Muhtarama Prezidentimiz tomonidan yoshlarni kitobxonlikka bo’lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida nafaqat ta’lim muassasi balki oilada ota-ona ham ma’sul shaxs ekanligini bu eng dolzarb muammolardan biri ekanligini ta’kidlamoqdalar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ota-onalar oyiga o’rtacha 2-3 ta kitob sotib olishadi. Shu yoshdagi bolalar uchun oyiga 40 ta jurnal nashr etiladi, ota-onalarning mutloq ko’pchiligi bu jurnallarga obuna bo’lishadi. Bola maktabga borgunga qadar o’qishni, yozishni, oddiy hisoblash ko’nikmalarini egallashi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: mashg’ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda (mehnatda, kuzatishlarda, uchastka va tabiat burchagidagi o’yinlarda) amalga oshiriladi.

Mashg’ulotlar-bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg’ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda o’rab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida

o'tadigan mashgulotlarda katta guruhning barcha bolalarida davlat talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va qobiliyatlari ma'lum sistema va izchillikda o'stiriladi. Kundalik hayotda, kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig'ilib boradi.

2.2. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish, metodlari va vositalari.

Ilm - fan, ma'rifat - madaniyat asrlar davomida insoniyat olamida so'nmas mash'al bo'lib, yoritib kelgan. Mamlakatimiz mustaqilligi sharofati bilan bugungi kunda bu mash'al tobora porlab, o'zgacha ahamiyat kasb egmoqda. Bizga ma'lum bo'lmagan tarix zarvaraqlari qatida pinhona yotgan qadpiyatlapimiz, noyob qo'lyozma asarlarimiz, qadimiy yodgorliklarimiz istiklol sharofati bilan tadqiqotchi olimlarimiz tomonidan teran o'rganilmoqda. Tarix - insonning barkamollik, taraqqiyot yo'li. Moziyii bilmaslik o'zini anglamaslikdir. O'zini anglagan xalqgina buyuk kishilarning nomlarini e'zozlab ruhi poklarini doimo yod etadi. Agar biz o'tmish tariximizga, nazar tashlasak, yashab ijod etgan pedagoglarimiz o'zlari ijod etgan davrlardayoq bolaning har tomonlama usishida, ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne'matlari uning mo'jizalaridir deb ta'kidlab o'tganlar.

Tarix zarvaraqlarida o'zlarining o'chmas, unutilmas nomlarini qoldirgan buyuk pedagoglar bola tarbiyasida tabiatning ahamiyati. uning bola ruhiyatiga qanday ta'sir qilishi haqida ilmiy fikrlari i aytib utganlar.

Sharq mutafakkirlarining tabiat hayotida insonniig tutgan o'rni haqidagi fikrlari va ilmiy asarlarini o'rganadilar. Bolalar tabiat burchangida, haynovot olami, er maydonchasida o'sadigan o'simliklar dunyosi haqida bilimga ega bo'ldilar hamda ularni parvarnsh qilishning ko'nikma va malakalarini egallaydilar.

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ekologik muammodir. Shu sababdan ham bolalar bog'chalarida ham ekologik ta'lim-tarbiya berishga alohida e'tibor berilmoqda. Tabiat bilan tanishtirish mobaynida bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish usullari, «Qizil kitob» haqida qisqacha ma'lumot va «Qizil kitob»ga

kiritilgan, noyob o'simlik va hayvonot olami haqida ham bilim berishga katta o'rin berilgan.

Shunindek, maktabgacha ta'lim muassasalarida katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirish sohasidagi yangi tajribalarni ham o'rganib olishlari zarur. Bolalarni tabiat qonun-qoidalari bilan tanishtirishning ahamiyati shundaki, ularning to'g'ri o'sib ulg'ayishiga, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga olib keladi. Bu bolaning shakllanishida, tabiatga, ona-Vatanga, tabiat boyliklariga bo'lgan mehr-muhabbatni oshiradi. Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish ayrim kishilarning ishi deb qaralmasdan barchamizning ishimiz ekanligi esdan chiqarmasligimiz kerak. Katta guruh bolalarning xar tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayon turli vositalar, metodlar orqali amalga oshiriladi. Yana shuni ta'kidlash joizki tabiathaqidagi bolalar uchun nafaqat sharq olimlari balki g'arb pedagoglari tomonidan o'rganilgan.

Ushbu mavzuni o'rganishda biz G'arb pedagoglaridan: Y.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestolotsiy kabi olimlarning bola tarbiyasida tabiatning tutgan o'rni haqidagi ilmiy asarlari bilan tanishamiz.

Rus pedagoglaridan K.D.Ushinskiyning, "Inson tarbiya predmeta sifatida" asari bilan tanishamiz.

Ushinskiy "Meni pedagogikada var var hisoblasangiz ham, lekin men o'z hayot tajribamda shunday xulosaga keldim. Go'zal tabiat yosh qalbgaga shunday katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadiki, hatto pedagogikaning ta'siri ham u bilan raqrbatlashishga ojizdir", -degan edi.

Bizga ma'lumki, bola dunyoga kelar ekan ilk yoshligidan boshlab tabiat bilan muloqotda bo'ladi. Bu haqda buyuk pedagog olimlarimiz o'zlari yashab o'tgan davrda, bolaning har tomonlama o'sishida ma'naviy ozuqa beradigan tabiatning noz-ne'matidir deb, ta'kidlab o'tganlar. Biz hozirda o'tmishdagi

pedagoglarimizning dono fikrlari va ilmiy asarlariga suyanganmiz o'zimizning pedagogik faoliyatimizda foydalanamiz.

Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlar ko'rgazmali kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish amaliy o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar, ogzaki metod tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat metodlaridan foydalaniladi. Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyachi bir qator vazifalarni hal etadi. Bolalarda tabiat haqidagi bilimni shakllantiradi, kuzatishni orgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi

Yosh bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bulardan eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolarni tabiat bilan tanishtirishdir. Tabiat-bolani ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Bolalar doimo u yoki bu formada tabiat bilan aloqada bo'ladilar. Ularni yam-yashil o'tloqlar va o'rmonlar, anvoi gullar, kapalaklar, qongizlar, qushlar, hayvonlar,, suzib yurgan bulutlar, pag'a-pag'a yog'ayotgan qor uchqunlari, jilg'a va havas uyg'otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan muloqotda bo'lish bolalarda atrof-olam haqida aniq bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo'lishni shakllantirishga yordam beradi.

Bolani tabiat bilan tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o'rgatish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash maktabgacha ta'lim muassasining eng muhim vazifasidir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar tabiat haqida juda bo'maganda elementar bilimlarni egallab olib, o'simliklarni o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, uning go'zalliklarini ko'ra olishni bilib olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va g'amho'rona munosabatda bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'uladi. Katta guruh bolalarida tabiatga jonajon o'lka, ona-vatanga muhabbat xuddi mana shu asosda shakllanadi.

Katta guruha bolalarida o'yin narsa va hodisalarning mazmunini bolaning o'z tajribasida bilib olishga, mazkur mazmunlarni ishlata bilishga mashq qildiradi. Bolaning shaxsiy sifatlari boshqalar bilan munosabatlarda tarkib topib boradi.

O'yin faoliyatining pirovardida ta'lim faoliyati yuzaga keladi. Bu faoliyatning maqsadi ma'lum axborotlarni - bilimlarni harakatlar va amallarni o'zlashtirishdan iboratdir. Odamning o'z maqsadiga ko'ra batamom o'rganish va o'zlashtirishdan iborat bo'lgan mana shunday maxsus faoliyati ta'lim faoliyati deyiladi. Psixologik jihatdan olganda, ta'lim faoliyati o'z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi: ma'lum bir nazariy va amaliy faoliyat to'rini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ob'yektiv olamning eng muhim xususiyatlariga doir axborotlarni o'zlashtirish, bu jarayonning mahsuloti bilimlardir. Mana shu faoliyatni, ya'ni bilimlarni almashtirishda yuzaga keladigan usul va operatsiyalarni egallash, bu jarayonlarning mahsuloti malaka va uquvlardan iboratdir. Ta'lim faoliyatining tarkibi juda ham murakkab bo'lib tarkibiga - ilmlar, tushunchalar, malakalar, odatlar, uquvlar kiradi.

Ta'lim faoliyati maxsus ravishda tashqil etilgan sharoitda amalga oshiriladi. Katta yoshli kishilar bolalarning taraqqiyotlariga faol ta'sir etib, ularning ta'lim faoliyatlarini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan xatti - harakatlarni tashqil qiladilar. Bu faoliyat va harakatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasini o'rganish tomoni yo'naltirilishidir. Shunday qilib, ta'lim faoliyati katta kishilar tomonidan tashqil qilinib boshqariladi va tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Ma'lumki, ta'lim faoliyati bilan tarbiya ishlari uzviy bog'liqdir.

2.3. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.

Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarga beriladigan bilimlar xilma-xil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyada, kundalik hayotda amalga oshiriladi. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida beriladigan bilimlar bolalarning imkoniyatlari hamda urab turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil rivojlantirish imkonini beradi. Mashg'ulotlarni ta'limiy ahamiyati bu bolalarga mashg'ulotlarda berilishi yoki aniqlanishi hamda umumlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hajmi, bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi, nutqini ustiruvchi, qiziqishlarini o'stiruvchi, qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bo'lmog'i lozim.

Tarbiyaviy ahamiyati esa bolalarda kattalarga hurmat, Vatasha, o'z o'lkasi tabiatiga mexr - muhabbat tabiatni avaylab - asrash. tabiat bergan ne`matlardan o'z o'rnida unumli foydalanish kabi hislatlar tarbiyalanadi.

Mashg'ulot uning turlari

Yangi bilim beruvchi	Bilimlarni aniqlovchi	Bilimlarni mustahkamlovchi	Noa`anaviy mashg'ulot
----------------------	-----------------------	----------------------------	-----------------------

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish manpulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda atrof muxit tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Tarbiyachi raxbarligida o'tadigan mashgulotlarda guruxlarning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq oddiy ilmiy bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma`lum tizim hamda izchillikda ustiriladi Kundalik hayotda kuzatish, oyin mehnat vaqtida bolalarning shaxeiy bilimlari kuyib boriladi. Mashgulotdar ularni anikdash, tizimga solish imkonini beradi. Bolalarni mashgulotlarda uqitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Uslub mashgulotning turiga, uning maqsadiga ko'ra aniklanadi. Ayrim mashgulotlarda boshlangich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rsatish, badiiy asarlarni uqish, diafilm, kinofilmlarni kursatishdan foydalanadi. Boshka mashgulotlarda esa bilimlar aniklanadi, kengaytiriladi, chukurlashtiriladi Yuqorida keltirilgan usullardan tashkari mazkur mashgulotda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Mashgulotning yana bir muhim vazifasi - bolalar bilimini umumlashtirish tizimga solish.

Mashgulotlar barcha yosh guruxlarda kichik va urta guruxda, oyda ikki marta, tayyorlov guruxlarida haftada bir marta o'tkaziladi.

Mashgulotga tayyorlanish hamda-uni, o'tkazishda mashgulotning tuzilishi uslubini tugri tanlash ta`limiyv vazifalar xarakteri, tabiiy ob`ektlarning xususiyatlari va bolalarning yoshiga boglikdir. Masalan yovvoyi hayvon haqidagi bilimyi shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilm ko'rsatish hayvonlar. usimliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma`qul.

Kichik yoshdagi bolalarning mashg'ulotlarida kuzatish uyini uslubidan foydalanib amalga oshiriladi. O'g'zaki' uslubdan asosan maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan buladigan mapnuloatlarda foydalaniladi. Tanlangan uslub dastur vazifasining to'liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatlarini ta'minlashi lozim. Mannu lot utkazishga tayyorlanar ekan tarbiyachi ishlash uchun qanday kurgazmali kurollar tanlashni rasmlar, gerbariyalar, tabiat kalendari va hokazolar. Qanday usimlik yosh hayvonni parvarish qilish, ekiladigan ekinning nimaga kerak bo'lishini uylab kuradi. Shundan keyingina u mashg'ulotning borishi ustida fikr yuritadi.

Bolalarda oddiy izlanuvchanlik qrbiliyatini oshirish ularning tabiat bilan tanishtirishdagi mustaqilligini fikr doirasini oshirishda va uta faol bo'lishini ta'minlaydi. Bunday qrbiliyat bolalarga tabiat hodisalarini tushunishga, uning sodir bo'lish sabablarini bilishga imkon beradi. Bolalarda izlanuvchanlik qrbiliyatini hosil qilish ma'lum tizim asosida amlga oshiriladi. U bolalarni tabiatda buladigan voqea, hodisalarni kurish, taxlil qilish asosida turli faoliyatlardan boshlanadi. Shundan keyin bolalarda fikrlash qobiliyati shakllanadi. Turli muammolar paydo bo'ladi. Bolalar bu muammolarni echishni uylab mulohaza yuritadilar. Natijada bolalar tabiatda buladigan o'zgarishlar. Ob-havo, uning o'zgarishlari, sabab-oqibatlar haqida tabiatdagi o'zaro bogliqliklar haqida ilmiy tushunchalar paydo bo'ladi. "Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturida" belgilangan bolalarga singdirish uchun bolaning bilishga- bo'lgan faolligini va amaliy faoliyatini oshirish zarur. Buning uchun tarbiyachi dasturdan izlanuvchanlik faoliyati yuli bilan o'rganiladigan tabiat haqidagi bilimlarni ajratib olmog'i kerak.

Tajriba sinov ishlari

Namangan shahridagi 48-Maktabgacha ta'lim muassasining katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning ahamiyati mavzusida tajriba olib bordim.

Tajribaning maqsadi:

MTMda katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyot orqali tabiatga va kitobga bo'lgan munosabatini yanada oshirish.

Tajribaning borishi:

Katta guruh tarbiyalanuvchilari.

Katta guruh bolalarini tabiatga va badiiy adabiyotga bo'lgan munosabati haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash uchun so'rovnoma o'tkazildi.

1.O'lkamiz boyliklarini sanang?

2.Tabiatdan nima olamiz?

3.Suv hayot manbayimi?


4.Hayvonlar bizning do'stimiz?

5. Tabiatni asraylik?

Kabi savollar bilan tarbiyachining hikoyalari va ertaklari asosidagi fikrlarini o'rganib chiqildi. Tajribadan ko'rindiki, tarbiyachi mashgulot shakllida yetkazgan mavzuni tishuntirish orqali yetkazgan ma'lumotlar bilan hikoya va ertaklar, rivoyatlar, she'rlar orqali berilgan ma'lumotlar farqlandi. Bunda bolalar vositalar orqali ko'rgazmalar orqali yetkazilgan ma'lumotlarni bolalar yaxshi eslab qolganlar.

O'LKAMIZ TABIATINI ASRANG

Inson tabiat boyliklarida o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanadilar. Yer yuzidagi dastlabki odamlar tabiatning tayyor mahsulotlaridan foydalanganlar. Odamlar aql-zakovatining rivojlanishi natijasida mehnat qurollarining yaratilishi va texnikaning taraqqiyoti natijasida katta-katta o'rmonlar yo'q bo'lib ketdi. Asosan, yashil boyliklar tog'li joylarda saqlanib qoldi. Millionlab yillar mobaynida yig'lgan tabiiy boyliklar qisqa vaqt ichida sarflab tugatilmoqda.



TABIAT- insonning yashash muhiti, u odamga oziq-ovqat,kiyim-kechak,yoqilg'I va elektor quvvati, sanoat xomashyosi bermoqda. Tabiatni qo'riqlash,asrab avaylash, uning boyliklarini tejab ishlatish zarur.

Tarbiyachi: Demak tabiarni asrash bizning burchimiz. Rasmga qaraymiz. Ushbu joylarda yashil tabiatning katta qismi saqlanadi. (tarbiyachi tomonidan hikoya asosida rasm orqali tushuntiriladi).

Tarbiyachi: Bolalar, charchab qolmadingizmi? Biroz dam olib olamizmi? Tarbiyachi: uchta komandadan bittadan past o'zlashtiruvchi bolalarni yoniga chaqiradi. Avvaldan tayyorlab qo'yilgan uchta listda tabiatga oid rasmlar yashirib qo'yilgan bo'ladi, tarbiyachi: listlarni teskari tutib bolalarga tanlashni buyuradi, bolalar o'zlari tanlagan listdagi so'zlarni fantamimika orqali ko'rsatib berishlari zarur.

So'zlar quyidagicha:

1-bola	2-bola	3-bola
quyon	to'ng'iz	bo'ri
ayiq	maymun	ilon
quyosh	Oy yer	
tog'	cho'l, daryo	

Tarbiyachi, bolalardan ko'plab fikr va mulohazalar eshitildi. Tajriba jarayonida mashgulotlar tashkil qilindi, bolalar bilan suhbatlar uyushtirildi va natijalar taqqoslandi. Har bir daraja foiz hisobida tahlil qilindi. Katta guruh bolalarida badiiy adabiyot orqali tabiatga bo'lgan munosabatini tarbiyalashda ajdodlarimiz merosidan foydalanish, ertak, hikoyalar, she'rlar va unga bo'lgan munosabat 5%, 6% gacha ko'tarildi. Zero, bugungi kunda vatanimizni asrash, vatanimiz taraqqiyoti uchun jon fido qiluvchi barkamol, jasur,mard, halol, barkamol avlodni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Vatanparvarlik hislatlarini singdirish, vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatni tarbiyalash har bir tarbiyachi va ota-onalarning burchidir.

Xulosa va tavsiyalar

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy hayotida sezilarli o'zgarishlar, islohotlar o'tkazildi. Unda ta'lim ustuvor soha deb e'lon qilinib, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ishlab chiqildi va uning asosiy g'oyalari amaliyotga tatbiq etildi. Shu islohotlar yo'lida uzluksiz ta'lim tizimining ilk maktabgacha ta'limga ham e'tibor ortdi.

Bolaning dunyoqarashi asosan maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab shakllanadi. Zero, katta guruh bolalarida badiiy adabiyotga, tabiatga bo'lgan tushunchalarini singdirish, vatanga bo'lgan cheksiz muhabbatni tarbiyalash har bir tarbiyachi va ota-onalarning burchidir. Bu hislatlari shakllangan bola o'z mushohada ko'lami, muayyan amaliy ko'nikmalarni egalaganligi bilan jamiyatga har tamonlama jihatdan tayyor bo'lib boradi. Ayni shu jihati bilan u dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammodir.

Prezidentimizning yuqoridagi so'zlari mag'zida huddi shu falsafiy hikmat borki, maktablardan, ayniqsa, ularning tarbiya yo'nalishlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tubdan isloh qilish kerak, yangicha, mustaqillik ruhiga monand, vatanparvarlik hislatlarini tarbiyalashda ajdodlarimiz merosidan foydalanish asosiga qurilgan bolalarda kitobxonlikka bo'lgan munosabatni tarbiyalash kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb muammodir. Shu muammolarni fan sohalari buyicha ajratib olib, bir ilmiy tizim va tartibga solish va ularni alohida-alohida tadqiq etish nihoyatda zarurdir. Shuningdek, bu ishlarning ommaviy nashrlarini chop etish, ularni respublikamiz pedagoglarga yo'llanma va qo'llanma sifatida o'sha muassasadagi tarbiya jarayonini faollashtirishga samarali hissa qo'shishga yordam beradi.

TAVSIYALAR

1. Katta guruh bolalarida badiiy adabiyot orqali tabiatga munosabatini tarbiyalashda, ajdodlarimiz merosidan doimiy foydalanish;
2. Bu hislatlarini tarbiyalashda bola yoshi va individual psixologik hususiyatlarini hisobga olish;
3. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning mashgulotlar jarayonidagi yuzaga keladigan qiyinchiliklarni oldini olish va bartaraf etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash.
4. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotning mashgulotlar ishlanmalarini tayorlash va ta'lim muassasasi hamkorligiga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va qo'llanmalar yaratish.
5. «Badiiy adabiyot», va «tabiat» mashgulotlarida tabiatga munosabatini o'zgartirish;
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiatni sevadigan, uni asrab avaylovchi, erkin fikrlovchi, milliy g'urur egasi, barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.
7. Katta guruh bolalarida badiiy adabiyotlar orqali tabiatdagi hodisalarni sistemali ravishda berib boorish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: “Ўзбекистон”, НМИУ, 2016 й. -76 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни “Маърифат” газетаси 1997 й 1 октябр.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” “Маърифат” газетаси 1997 й 1 октябр.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарори. “Ўзбекистон овози” газетаси, 2017 й. 1 январ, № 1-сон (32.216).
5. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т.: Ўзбекистон, 2011 й.
6. Каримов И. А. Юксак маънавият - енгилмас куч. Тошкент. “Маънавият”, 2008 й, -176 б.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил, № -сони.
7. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Т. “Ўзбекистон”, 2017 й. – 47-б.
8. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 й. 7 декабр. –Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 48б.
9. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo`yiladigan davlat talablari-T.:Kvinta print. 2012 у.
10. «Болажон». Таянч дастури. Т., 2010 й.
11. Содиқова Ш. Мактабгача педагогика. Тўлдирилган қайта нашр. –Т.: ТДПУ, 2017 й.

12. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T.: 2013 y.
13. Kayumova N. “Maktabgacha pedagogika”. TDPU nashriyoti T.: 2013 y.
14. Xasanboeva O. U. va boshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2012 y.
- 15..U Xasanboeva, X.J.Djabborova Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. T.: Cho`lpon. 2007.
- 16.Q Haydarov, S.Nishonova Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan tanishtirish. T.: O`qituvchi. 1992.
- 17.Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T.: O`qituvchi. 1995.
- 18.Djabborova X.D. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta`lim – tarbiya berishning o`ziga xosligi. T.: O`qituvchi. 2000.
- 19.Akbarova T. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o`simliklar bilan tanishtiruvchi didaktik o`yinlar. T.: TDPU. 2005.
20. Musurmonova O. Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent. “O`qit”. 2000y. 192-b.
21. Хайдаров £., Нишонов С. «Табиатшunoslik asoslari va bolalarni atrof-tabiat bilan taniштириш». T., «Ўқитувчи» 1992й. (60-64 бетлар)
- 22Хайдаров К. «Табиат ва инсон экологияси» Самарқанд 1993й. (66-67, 88-90 бетлар)
23. Jo`raev Q. O`smirlarni o`zini anglash va o`z-o`zini boshqarishga o`rgatishning pedagogik omillari. Pedagogik fanlar nomzodi dissertatsiyasi. 2006.
- 24 Sayidahmedov N. Yangi pedagogic texnologiyalar. Nazariya va amaliyot.- T.Moliya nashriyoti, 2003.
- 25.Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogic texnologiya. – T., O`zmu qoshidagi OPI, 2003.

III. INTERNET SAYTLARI:

1. [http: www.ziyo.net.o'z](http://www.ziyo.net.o'z).
2. [http: www.pedagog.o'z](http://www.pedagog.o'z).
3. [http: www.edu.o'z](http://www.edu.o'z).
4. <http://www.google.uz/>

MUNDARIJA :

Kirish.....	3
I bob. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanishning nazariy holati.....	
1.1.Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....	15
1.2. Bolajon dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotdan foydalanishning mazmuni.....	23
1.3. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirish mashgulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishga qo'yiladigan talablar.....	39
II-bob. Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....	
2.1. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish shakllari.....	47
2.2. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirishda badiiy adabiyotlardan foydalanish metodlari va vositalari.....	53
2.3. Katta guruh bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashgulotlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.....	56
Tajriba sinov ishlari	58
Xulosa va tavsiyalar.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	63